



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI**

**“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasi
IV kurs bitiruvchisi Arasheva Gulira’noring**

**“MILLIY ONGNING MA’NAVIY BARKAMOL INSONNI
SHAKLLANTIRISHDAGI O’RNI VA ROLI” mavzusidagi**

**BITIRUV
MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar:

Teshayev N.N.

BUXORO-2018

MAVZU: MILLIY ONGNING MA’NAVIY BARKAMOL INSONNI

SHAKLLANTIRISHDAGI O’RNI VA ROLI

KIRISH

I bob. Milliy ong- ma’naviy barkamol insonni shakllantiruvchi mezon

1.1. Milliy ong va uning ma’naviy asoslari

1.2. Milliy o’zlikni anglash va uning mohiyati

II bob. Milliy o’zlikni anglash – barkamol inson ma’naviyatining belgisi

2.1. Barkamol insonda milliy o’zlikni anglash tuyg’usi va uni mustahkamlash masalalari

2.2. Milliy o’zlikni anglash rivojlanishi zaruriyatining kuchayishi

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

ILOVA

KIRISH

Mavzuning dolzarblii. Mustaqillikka erishilgandan so'ng milliy o'zlikni anglash, mohiyat e'tiboriga ko'ra, tamomila yangi davlat va jamiyat barpo etish, dunyo hamjamiyatida Vatanimizning munosib o'rinnegallashi, erkin va mustaqil tafakkurga ega yangi avlodni voyaga yetkazish davlat siyosatining eng ustuvor vazifasi sifatida yondoshila boshlandi. Mustaqil O'zbekistonimizning o'tgan 26 yillik keng ko'lamli yaratuvchanlik va bunyodkorlikdan iborat davri betakror taraqqiyot yo'limizning nechog'liq to'g'ri ekanini isbotlab kelmoqda. Davlat, jamiyat va har bir inson hayoti farovonlashmoqda. Bugungi kundan mammunlik va shukronalik, o'z iqboli, istiqboli, ertangi kuniga ishonch, istiqlol yo'liga e'tiqod har bir o'zbekistonlikning qalbiga jo bo'lib, hayoti va faoliyati mayog'iga aylandi. Ko'pmingyillik ko'hna tarixda ne-ne voqealarni boshidan kechirgan xalqimiz uchun milliy ongimiz va o'zligimizni anglash tuyg'usining shakllanishi – hayotimizni, ongu shuurimizni tubdan o'zgartirdi.

Milliy ongning o'sishi -bu, avvalo, biz kimlarning, qanday buyuk zotlarning avlod ekanimizni chuqur idrok etish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi ruhida yashash, istiqlol g'oyalarini yurtdoshlarimiz, xususan, yosh avlod qalbi va ongiga yanada teran singdirish, jahon hamjamiyatidan munosib o'rinnegallash, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etishning eng asosiy va muhim sharti, milliy taraqqiyotimizning kafolati, demakdir. Davlatimiz rahabari Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida "birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir", - deb ta'kidlab o'tgan edilar¹.

Darhaqiqat, milliy jihatdan o'zligini tanigan inson millatini, Vatanini, uning o'tmish tarixini, adabiyoti, san'ati va madaniyatini, jahon sivilizatsiyasiga unutilmas hissa qo'shgan va tafakkur osmonida yulduzday porlab turgan buyuk allomalar vorislari ekanligini bilib oladi. O'zligini anglagan inson, o'zligini anglagan millat

¹ O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zladidi. //Xalq so'zi 20 sentyabr 2017 yil.

ulug' ajdodlarining sha'ni-shavkatiga, aqlu zakovatiga, ularning hayotbaxsh, qutlug' meroslariga hamisha munosib bo'lishga harakat qiladi, Vatanini o'zgacha mehr bilan sevadi, u bilan cheksiz faxrlanadi, yurtim deb, elim deb yashaydi. Ota-bobolari an'analarini davom ettirishni, ular yetolmagan taraqqiyot cho'qilarini egallahni o'zining asosiy maqsadi hisoblaydi, milliy qadiriyatlarni uimuminsoniy qadriyatlardan ajralmaydi.

Milliy jihatdan o'zini anglagan insongina mamlakati va millati oldida turgan asosiy maqsad-muddaolar nimadan iboratligini tushunib yetadi, o'zining el-yurt oldidagi burchi va mas'uliyatini chuqur anglaydi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov milliy ongning ma'naviy barkamol avlodni kamol topishidagi o'rni haqida quyidagilarni e'tirof etgan edilar: "O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Biz, haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur" va "O'zlikni anglash deganda men tarixiy xotirani tiklash, nasl-nasabimiz Kim ekanini, kimlarning vorisi ekanligimizni anglab yetishni, shundan kelib chiqib, o'zimizga xos va mos jamiyat barpo etishni tushunaman"¹.

Haqli ravishda yunon faylasufi Suqrotning "o'zligingni angla" hikmati donishmandlikning oltin qoidasi namunasidandir. "O'zini anglagan inson, – degan edi u, – o'zi uchun nima foydaliligi va nimalarga qodir ekanligini yaxshi tushunadi. U qo'lidan keladigan ish bilan shug'ullanish asnosida o'z ehtiyojini qondiradi va saodatga erishadi. Har qanday xato va baxtsizliklardan xoli bo'ladi. Buning natijasi o'laroq, u o'zga odamlarni qadrlay oladi va ulardan ezgulik yo'lida foydalana biladi. Oqibatda o'zini kulfatlardan asraydi"².

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o'rganilayotgan tadqiqot mavzusining dolzarbliyi quyidagilar bilan belgilandi:

Birinchidan, agar milliy o'zlikni anglash rivojlangan bo'lsa, millatning manfaatlariga, ayniqsa sha'ni, qadr-qimmati, obro'-e'tibori, g'ururi poymol etilishiga qaratilgan harakatlar yuzaga kelgan sharoitlarda, millatning barcha vakillari birlashib ketadilar, hatto millatning ichida o'zaro muxolifatda bo'lgan

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. "Muloqot" jurnali. 1998 yil. 5-soni.

² Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf. – T.: "Yangi asr avlod", 2011. – B. 63.

tomonlar ham millatning sha'ni, g'ururi, obro'-e'tiborini himoya qilish manfaati yo'lida birlashlari dolzARB ahamiyat kasb etadi;

Ikkinchidan, milliy o'zlikni anglash ruhiy, his - hayajon, ehtiros omilidir. Mazkur holat tashqaridan qaraganda sezilmaydi. Uni millatning hatti-harakatlarida, intilishlarida va maqsadlarini amalga oshirishlaridagi salohiyati orqali bilib olish mumkin bo'ladi. Ruhiy his-hayajon va ehtiroslarning "portlashi" millatning xarakteri, xususiyatlari, milliy g'oyalarni yaratuvchi, uning taraqqiyotida oldingi safda turuvchi ziyolilarning salohiyatiga bog'liqligi bugungi kunda mavzuning dolzarbligini namoyon etadi;

Uchinchidan, milliy o'zlikni anglash omili faqat milliy manfaatlarni himoya qilish bilan cheklanmaydi, balki milliy taraqqiyot jarayonida, uning oldida yuzaga keladigan ichki muammolarni hal qilish hamda millatni birlashtiruvchi va harakatga keltiruvchi vazifani ham bajaradi. Bu muammolar mamlakatda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda sodir bo'lishi mumkin;

To'rtinchidan, milliy o'zlikni anglash millatning muhim belgisi sifatida, faqat uning manfaatlarini ifodalab yoki himoya qilish bilan cheklanmaydi, balki shular bilan birga uning abadiyligini ta'minlab turuvchi mustahkam qo'rg'on hamdir. Siyosiy ma'naviyati, milliy ongi rivojlangan, milliy jihatdan o'zini- o'zi anglab yetgan xalq, millat mustaqillikning buyuk kuchiga aylanadi. Millatning, xalqning kuch qudrati uning soni bilan o'lchanmaydi, balki siyosiy yetukligi, milliy ongning o'sganligi, milliy g'ururi, milliy hissiyoti, milliy tuyg'uning qay darajadaligi, o'z-o'zini anglab yetganligi, milliy uyushganligi bilan belgilanadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi.

Bugungi kunda barkamol avlodni kamol toptirishda milliy ong, milliy g'urur, milliy iftixor, milliy his va milliy xarakter masalalari yuzasidan bir qator ilmiytadqiqot ishlari olib borilgan va mavzuga oid ilmiy maqola, darslik va kitoblar nashrdan chiqqan.

Ushbu mavzuni tadqiq etishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning asarlari metodologik asos qilib olindi¹.

Avvalo, shuni alohida ta'kidlash lozimki, mustaqilligimizni qo'lga kiritganimndan keyingi o'tgan davr ichida bir qator faylasuf, tarixchi, adabiyotchi olimlar o'zbek xalqining shakllanish jarayoni va tarixiga oid Yusupov E., Mirkomilov B., O'ralova O., Muhammadiyev P., Mamadaliyev Sh.O., Ernazarov R.U., Erkayev A., Nazarov Q., Otamurotov S., Tulenov J., G'afurov Z., Abdurahmonov M., Ochilova B., Qo'chqorov V.larning bir qator asarlari shu mavzuga bag'ishlangan².

Shuning bilan birga "millat", "milliy mentalitet", "milliy g'oya", "milliy o'zlikni anglash", "milliy g'urur", "millat sha'ni", "milliy iftixon" va boshqa bir qator tushunchalarga ilmiy ta'rif berish va ularning mohiyatini ochib berishga bag'ishlaigai bir qator asarlar ham chop etildi. Ammo "milliy o'zlikni anglash" tushunchasi, uning mazmun-mohiyatini ochib beradigan maxsus fundamental

¹ Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birlashtirish uchun etamiz.-T.: "O'zbekiston", 2016. – B.56. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.– T.: "O'zbekiston", 2017. –B. 104., Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T: "O'zbekiston", 2017. – B.48., Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: "O'zbekiston", 2017. –B. 488., Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. –B. 592.

Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – T.: "O'zbekiston", 1996, -B.366. Milliy istiqlol mafkurasi– xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchlar. -T.: "O'zbekiston", 2000, -B.176., KarimovI.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. "Muloqot" jurnali. 1998 yil. 5-soni., Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch.- T.: "Ma'naviyat", 2008, -B.123.

² Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. T.: "Universitet", 1998, Mirkomilov B., O'ralova O., Muhammadiyev P. Ma'naviy tiklanish va o'zlikni anglash. –T.: "Muhabbir", 2010, Sh.O.Mamatdaliyev, R.U.Ernazarov, A.Erkayev Ma'naviyat asoslari. –T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013, Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi.-T.: "Faylasuflar jamiyat", 2004, Otamurodov S.O. Abduraxmonov M. Xusanov S. Ma'naviyat asoslari. T.: "Universitet", 2008, Otamurotov S. Milliy rivojlanish falsafasi. Toshkent "Akademiya", 2005, Otamurotov S., Otamurotov S. O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish(sotsial-falsafiy taxlii). – T.: "Yangi asr avlod", 2003, Otamurodov S. Globallashuv va millat. –T.: "Yangi asr avlod", 2008, Otamuratov S. Globallashuv va milliy ma'naviy xavfsizlik. –T.: "O'zbekiston", 2013, Tulenov J., G'afurov Z. Mustaqillik va milliy tiklanish. T.: "Yangi asravlod", 1995, Abdurahmonov M. Ma'naviy salohiyat. –T.: "Universitet", 2009, Qo'chqorov V. Milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. –T.: "Akademika", 2007.

falsafiy asarlar bugungi kungacha yaratilgani Globallashuvning milliy-ma'navnyatimizni ichidan va tashqarisidan yemirayotgan jarayoni kuchayayotgan bugungi kunda ana shunday fundamental asarlarga ehtiyoj yaqqol sezilmogda.

Bitiruv malakaviy ishi obyekti va predmetining belgilanishi. Barkamol shaxsni tarbiyalshda milliy ong, milliy va uuminsoniy qadriyatlarning o'rni bitiruv malakaviy ishining obyekti etib belgilandi. Barkamol avlodni kamol toptirishda milliy ong, milliy g'urur, milliy iftixor, milliy his va milliy xarakter masalalari yuzasidan olib borilgan bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari mazkur ishimizning predmetini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Milliy ongning ma'naviy barkamol insonni shakllantirishdagi o'rni va rolini aniqlash tadqiqot ishini maqsadi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Mazkur ishning maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Milliy ong va uning ma'naviy asoslarini nazariy jihatlaridan atroficha o'rganish va tahlil etish;
- Milliy o'zlikni anglash va uning mohiyatini izchil o'rganish;
- Barkamol insonda milliy o'zlikni anglash tuyg'usi va uni mustahkamlash masalalarini ilmiy tadqiq etish;
- Milliy o'zlikni anglash rivojlanishi zaruriyatining kuchayishini o'rganish va tahlil etish.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Barkamol avlodni kamol toptirishda milliy ong, milliy g'urur, milliy iftixor, milliy his va milliy xarakter masalalarini keng va har tomonlama ilmiy asosda tadqiq etilishi bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangilagini belgilab beradi. Shuningdek, ilmiy yangilik sifatida bitiruv malakaviy ishida qo'yidagilarni ko'rsatish mumkin:

- Milliy ong va uning ma'naviy asoslarining mazmun-mohiyati nazariy jihatdan chuqur tahlil etilgan;
- Milliy ong, milliy g'urur, milliy iftixor, milliy his va milliy xarakterning barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati o'rganilgan;

- Milliy o'zlikni anglash rivojlanishi zaruriyatining kuchayishi masalasi ochib berilgan;
- Milliy ongning ma'naviy barkamol insonni shakllantirishdagi o'ziga xos o'rni tahlil etilgan.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Mazkur ish natijalaridan Oliy o'quv yurtlarida "Ma'naviyat asoslari", "O'zbekiston tarixi", "O'zbekistonda Demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti", "Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar", "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" kabi fanlarning mavzuga oid ma'ruzalarini o'qitishda, ijtimoiy gumanitar yo'nalishdagi fakultetlarda milliy ongning ma'naviy barkamol insonni shakllantirishdagi roli masalalarini o'rganishda yordamchi manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot ishining tuzilishi. Tadqiqot ishi kirish, har biri 2 paragraf, 2 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

I BOB. MILLIY ONG - MA’NAVIY BARKAMOL INSONNI

SHAKLLANTIRUVCHI MEZON

1.1. Milliy ong va uning ma’naviy asoslari

Mustaqillikka erishganimizdan so’ng, o’tgan yillar tarix uchun bir lahma bo’lsa-da, O’zbekiston uchun butun bir tarixiy davr bo’ldi. Mustaqillik yillarida, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’birlari bilan aytganda, o’z o’tmishimizni, o’z madaniyatimizni xolisona bilib olish, jahon hamjamiyati, tarix oldidagi vazifamizni anglab olish davri bo’ldi: “Mustaqillik yillari - yosh demokratik davlatni faol qurish, uning siyosatini ishlab chiqish davridir. Bu davr ma’naviy uyg’onish va milliy o’zligini anglashning o’sishi davridir. Bu - ozodlik ruhi bilan, o’z kuchlariga, mamlakatning, xalqning yorqin kelajagiga ishonch bilan to’lib - toshgan davridir”¹.

Bugungi kunda mamlakatimiz va xalqimiz taraqqiyotini ta’minlashning asosiy omili sifatida milliy-ma’naviy tiklanish konsepsiysi to’g’ri yo’l sifatida tanlanganligi o’zining amaliy tasdig’ini topmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Chunki ma’naviy yangilanishlar milliy ong, o’zlikni anglash, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Ma’naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik vujudga keladi hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi. Bu o’z navbatida shaxsning milliy ongi va uning barkamol inson sifatida rivojlanishi uchun mustahkam poydevor bo’lib xizmat qiladi.

Milliy ma’naviyat hodisasi ham tarixiy, ham bugungi kunda mavjudligini saqlab turgan ko’p o’lchamli voqeylekdir. Inson ma’naviy olami o’lchamlari cheksiz bo’lib, uni hech bir narsa bilan o’lchash, qiyoslash mumkin emas. Milliy ma’naviyat avvalo milliy ongda rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham mustaqillikka erishganimizdan buyon milliy ongni rivojlantirishni tarbiyaviy ishning muhim bo’qimi sifatida olib qaramoqdamiz. Milliy ongning rivojlanishi pirovard milliy o’zlikni anglash sari yetaklaydi.

¹ Karimov I.A. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. – T.: “O’zbekiston”, 1996, - B.176.

Insoniyatning ma’naviy kamoloti imkoniyatlari cheksizdir. Bu cheksizlik insonning tabiatini, u yashayotgan jamiyatning imkoniyatlari bilan belgilanadi. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida takomillashib, kengayib va chuqurlashib borayotgan axloqiy, huquqiy burch va mas’uliyat bilan bog’langan manfaatlar ma’naviy kamolotning yangi muammolarini keltirib chqaraveradi. Muayyan oqilona manfaatning chegarasidan ikkinchisiga tadrijiy yo’l bilan o’taverish ma’naviyat taraqqiyotining hal qiluvchi omildir. Ma’naviy kamolot xalqning tarixi, madaniy merosi, milliy, umuminsoniy qadriyatlarning mohiyati va ahamiyatini xolisona bilish, ulardan oqilona foydalanish, rivojlantirish bilan bog’liqdir. Bunda milliong muhim ahamiyat kasb etadi¹.

Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug’atida milliy ong –har bir millat yoki elatning uzoq tarixiy taraqqiyoti, turmush tarsi, ma’naviy-diniye’tiqodi, madaniy rivoji jarayonida shakllangan dunyoqarashi, tafakkuri, e’tiqod va ishonch tuyg’ularini ifodalovchi tushuncha², deb ta’riflanadi. Ma’naviy yangilanish bir tomondan, kishilar hayotida, umuman jamiyatda yuz berayotgan voqeа-hodisalar shaxs ongi va ma’naviyatida muayyan o’zgarishlarni keltirib chiqarsa, ikkinchi tomondan esa, ma’naviyat voqelikdagi o’zgarishlarning kelib chiqishi va sodir bo’lishiga katta ta’sir ko’rsatadi.

Milliy ong bir millatga mansub bo’lgan kishilar o’z vatanining, xalqining tarixi, ajdodlari qoldirgan meros va amaliy tajribani umuminsoniy qadriyatlар bilan bog’liq ravishda chuqur o’rganishi va o’zlashtirishi, millat qadr- qimmati, obro’-e’tiborini baland ko’tarishi, mamlakat imkoniyatlari, milliy manfaatlarni chuqur anglagan holda istiqlol va istiqbol yo’lida fidokorona xizmat qilish, boshqa millatlarga ham adolatli munosabatda bo’lish, ularning moddiy va ma’naviy manfaatlarni hurmat qilishi asosida shakllanadi. Milliy ong har bir etnik guruh, uning vakillari uzini ijtimoiy-tarixiy jarayonning, jahon hamjamiyatining tarkibiy qismi, muayyan manfaatlar, meros va qadriyatlarning sohibi sifatida anglashidir.

¹ Mirkomilov B., O’ralova O., Muhammadiyev P. Ma’naviy tiklanish va o’zlikni anglash. –T.: “Muharrir”, 2010. –B.24.

² Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug’ati.- T.: “G’ufor G’ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi”, 2009, -B.406.

Milliy ong o'sishi milliy ma'naviyat rivojlanishi darajasi, imkoniyatlari bilan belgilanadi. Yetuk milliy ong barkamol milliy ma'naviyatning natijasi sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun xam milliy ong milliy ma'naviyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Milliy o'z-o'zini anglash, o'z navbatida, ma'naviy kamolotga yangi imkoniyatlar, ufqlar ochadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ko'rsatib o'tganlaridek “Bugungi kunda “**Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart!**” degan hayotiy da'vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o'rinn egallagan”¹.

Fikrimizcha, milliy ong oddiy his, tuyg'u emas, balki muayyan axloqiy, huquqiy, ilmiy, mafkuraviy qadriyatlarga asoslangan e'tiqoddir. Milliy ongning mohiyati, mazmuni millat o'z-o'zini anglashi darajasi bilan bog'liq bo'ladi. Milliy ong shakllangan e'tiqodlar, maqsad va manfaatlar tizimi, milliy o'z-o'zini anglash esa shu tizimning shakllanish jarayonidir. Millat dastavval o'zini anglamog'i, tarixi, taqdiri, istiqboli, manfaatlarini chuqur tushunib yetmogi lozim. Shundan keyingina boshqa millatlarning tarixi, madaniyati, milliy xususiyatlari va manfaatlariga xolis baho berishi mumkin. O'zligini anglab, milliy ongi kamol topayotgan millatgina boshqalarni ham anglash imkoniga ega bo'la oladi.

Hozirgi globallashuv jarayonida yoshlarni tarbiyalashda milliy ongning quyidagi jihatlariga asosiy e'tibor berishi zarur.

Milliy ong - milliy birlik va birdamlik tuyg'usi shakllanishi va rivojlanishining asosi. Milliy ongning belgisi bo'lgan milliy birlik, birdamlik, mas'uliyat tuyg'usi - millatparvarlikdir. Shu tuyg'u asosida inson o'zini alohida etnik guruhgaga mansubligini anglaydi, tarixi va qadrini chuqurroq, bilishiga intiladi, vatan manfaatlari yo'lida fndoyilik namunalarini ko'rsatadi, o'z xalqiga mansub bo'lgan kishilar bilan birlashib, milliy manfaatlarni himoya qilishga harakat qiladi. Milliy ongi yetuk, birlik tushusi kuchli bo'lgan millatgina yorin istikbolga, uz maksadariga erishadi. Bunday millatni itoatli kullarga aylantirib bulmaydi. Milliy

¹ Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. //Xalq so'zi, 14 dekabr 2016 yil.

birlik, mas'uliyat tushusini zaiflashishi mamlakat, xalq, hayotida bo'ladigan inkirozlarga sabab bo'ladi.

Rossiya bosqinchilari Turkistonni istilo qilgan davrlarida mahalliy xalqlar orasida milliy birlik va birdamlik tuyg'usini zaiflashtirishga katta e'tibor berishgan. Natijada mahalliy xalqlarning uyushgan qarshiligidagi duch kelmay mintaqani bosib oldi. Ular dastavval qozoq juzlari o'rtasidagi ziddiyatlarni kuchaytirganliklari natijasida turli urushar o'rtasida nizolar, urushlar kuchayib ketdi. Ayrim urug'lar Rossiya himoyasiga o'tishga majbur bo'ldi. Bu siyosat qozoq xalqini uyushgan milliy birlik sifatida zaiflashtirdi. Ular birlashib, tashqi agressiyaning oldini olish o'rniga o'zaro kurash yo'lida qoldilar. Buxoro, Qo'qon, Xiva xonliklari o'rtasidagi ziddiyatlarni kuchaytirish ham Rossiya siyosatida katta o'rinni oldi. Muntazam davom etayotgan urushlar natijasida asosiy aholisi bir xalqqa mansub bo'lgan davlatlar zaiflashdi, ularni bosib olib, mustamlakaga aylantirish imkoniyati kengaydi. Angliya bosqinchilari ham milliy birligi zaiflashib, turli qabilalarga bo'linib ketgan arablarni tezda o'zlariga qaram kilib olgan edilar¹.

Bizningcha, milliy onglilik – o'z-o'zini mustaqil idora qila olish madaniyati hamdir. Milliy birlikning g'oyaviy asoslari bilan birga, tashkiliy tomonlari ham ahamiyatlidir. Bu boradagi vazifalar milliy birlikning barqarorlashtirish uchun o'z vatanini himoya qila olish, milliy davlatchilikni mustahkamlash masalasini kun tartibiga qo'yadi. Shu sababli milliy birlik g'oyasi iqtisodiy, siyosiy mustaqillikka erishish, mustaqillikni mustahkamlash, himoya qilish masalalarini ham o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy, siyosiy jihatdan boshqalarga qaram bo'lgan mamlakatda mustaqil milliy davlat barpo etish qiyin. Milliy birlik, birdamlik barqaror bo'lgan joydagina milliy davlat, til madaniyat, qadriyatlar, an'analar yuksalishi uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

Milliy ong zaminida shakllaigai milliy birlik - milliy mafkura, milliy vijdon, milliy axloq hamdir. Binobarin, milliy birlik tuyg'usi oldin kishilarning qalbida

¹ Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. T.: "Universitet", 1998, -B.166.

mafcura, e'tiqod, axloq sifatida shakllanadi va shundan keyingina katta tarixiy, ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida ahamiyat kasb etadi. Mustaqillikni qo'lga kiritish, uning imkoniyatlaridan samarali foydalana bilish milliy ong, milliy birlik va birdamlik tuyg'usi qay darajada rivojlanganligiga bog'liq. Mustamlakachilik davrini qo'msash, qanday sharoitda, kimning qo'li ostida yashasak ham, qornimiz to'ysa, ustimiz but bo'lsa, bizga shu narsa yetarli deb o'ylash milliy ong zaifligining belgisidir.

Milliy ong, milliy birlik, birdamlik tuyg'usi dialektik birlikni tashkil etadi. Milliy birlik va birdamlik tuyg'usi yetuk milliy ong asosida shakllanadi va, o'z navbatida, milliy ongning rivojlanishii va barqarorlashiga katta ta'sir ko'rsatadi. Milliy ongning mohiyati milliy birlik va birdamlik tuyg'usiga nisbatan kengroq va chuqurroqdir. U millatga xos ma'naviyatning barcha jabhalarini o'z ichiga olsa, milliy birlik, birdamlik tuyg'usi shu yaxlitlashgan ma'naviyatning amalda namoyon bo'lishidir. Sharqona odob-axloq va umumbashariy g'oyalarni ongiga singdirib olgan kishi yuksak ma'naviyatli, ya'ni ma'naviy barkamol, komil inson hisoblanadi. Ma'naviy barkamollik insonning dunyoqarashi, e'tiqodi, ruhiyati, xulq-atvori, axloq-odobi bilan bevosita aloqador.

Ma'naviy barkamol kishilar xalq taqdiri va farovonligi, Vatan taqdiri va uning ravnaqini o'ylaydilar. Ular mutelikda, qaramlikda yashashni istamaydilar¹.

Shulardan ko'rindiki, milliy ong har bir shaxs o'zining muayyan ijtimoiy-ethnik birlikka mansubligini anglashi, shu birlikning yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni tushunishi hamda ularga o'z munosabatini bildirishdir. Har bir tadbir millat o'z-o'zini anglashidan boshlanadi. Millat istiqboli bilan bog'liq tadbirlar zaminida milliy manfaatlarni anglash yotadi.

Milliy ong, milliy axloq, psixologiya kabi abadulabad belgilab qo'yiladigan, qotib qolgan hodisa emas. Milliy ong har bir xalqning tarixiy rivojlanishi jarayonida o'zgarib, takomillashib boradi. Tarixning burilish davrlarida milliy ongda ham

¹ Sh.O.Mamadaliyev, R.U.Ernazarov, A.Erkayev Ma'naviyat asoslari. –T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. -B.122.

qonuniy tarzda katta o'zgarishlar yuz beradi. Milliy mustaqillikning mohiyati va ahamiyatini anglab yetish natijasida milliy ongning o'sish sur'atlari tezlashib ketadi. Milliy uyg'onish, shak-shubhasiz, milliy his-tuyg'ularni junbishga keltiradi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, hozirgi kunda ichki milliy adovatlarni, xalqlarning bir-biriga ishonchsizligini qasddan avj oldirishga, milliy ongni uyg'otish o'rniga, uni so'ndirishga harakat qiluvchi kuchlar ham bor. Bunday kuchlar xalqlarning milliy mustaqilligi mustahkamlanishidan qo'rquvga tushmoqdalar. Bundan tashqari, milliy onglilik asosida milliy xudbinlik yoki milliy kalondimog'likning yuzaga kelish xavfi ham bor. Ana shularni oldini olish kerak.

Milliy ong tariximiz va taqdirimiz birligini, bir etnik guruhga mansub ekanimizni anglashdir. Shu asosdagina millat vakillari urtasvda birdamlik, ahillik, hamjihatlik, umumiy maqsadlar yo'lida bir yoqadan bosh chiqarib, qo'lni- qo'lga berib harakat qilish mas'uliyati shakllanadi. Mahalliychilik, guruhbozlik milliy ong pastligidan, kishilar o'zlarini bir etnik guruhga mansub ekanini chuqur anglab yetmaganligidan kelib chiqadi. O'zbeklar bir-birlarini Farg'onaliklar, Toshkentliklar, Xorazmliklar deb farqlashlari mavjud mintaqalarga xos, obyektiv o'ziga xoslikni aks ettiradi, albatta. Biroq mazkur o'ziga xosliklarni bo'rttirish mahalliychilik kasalini keltirib chiqaradi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, "avvalambor, soxta obro' topishga urinish, urug'chilik, guruhchilik, mahalliychilik, oshnayog'aynigarchilik, nafs balosidan xalos bo'lib, barcha kuch-quvvatimizni, sa'y-harakatimizni, xudo ato etgan aql-zakovatimizni yurtimizda tinchlik, osoyishtalik, barqarorlikni saqlashga jalb qilaylik.

Inson huquqlari va erkinliklarini, uning farovon hayotini, har bir oilaning to'kin-sochin dasturxonini ta'minlashga sharoit yarataylik. Kelajagimizni, davlatimizni, yurtimiz tinchligini, uning xavfsizligini mustahkamlash, yomon ko'zlardan asrash ishiga o'zimizni baxshida etaylik"¹.

¹ Karimov I.A. Vatan sajdah kabi muqaddasdir. T. 3. –T., 1996,-b.78.

Birinchi Prezidentimiz mustaqillikni dastlabki yillarda aytgan ushbu fikrlari o'zini xalq tinchligi va osoyishtaligini, fuqarolar xavfsizligini, ularni har qanday ko'rinishdagi tajovuzlardan himoya qilishni ta'minlashdek kasbga, ya'ni xalqqa xizmat qilishga baxshida etgan har bir xodimning ongida shakllangan, qon-qoniga singgan, xizmat faoliyatining asosiy shiori bo'lishi kerak.

Agar bunday ma'naviy qashshoqlik saqlanib qolsa, o'zbeklarni bir-biriga qovushtirish, yagona maqsad sari hamjihatlik va ahillik bilan olib borish qiyinlashadi. Mahalliychilik shu qadar xatarli ijtimoiy illatki, vaqtি kelsa va imkoniyat bo'lsa bu ma'naviy zaiflikdan dushmanlarimiz ustalik bilan foydalanishi, bizni bir-birimizga qarshi qo'yib, gij-gijlashi, mamlakatimizdagi vaziyatni barqarorlashtirish yo'lida qiyinchiliklar tushirishi mumkin.

Yagona millat bo'lган o'zbeklarning ota-bobolari ayrim davrlarida turli davlatlar hududida yashaganlar, XVII-XIX asrlarga kelib ular o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar bir qadar zaiflashgan. Mahalliychilik illatlari, ma'lum ma'noda, tarixning shu davrlarida kuchaygan. Milliy birlik millat taqdirini hal etishda katta ma'naviy omil bo'lismeni fahmlamagan ayrim johil hukmdorlar o'zbeklarni Buxoro, Xiva, Qoqon xonliklariga bo'lib yuborganlar. Keyinchalik mana shu milliy tarqoqlikdan ustalik bilan foydalanib, yurtimizni bosib olgan chor Rossiyasi bu siyosatni davom ettirib, milliy birligimizga rahna solib keldi. Bu siyosat xalqimizning milliy ongi o'sishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi¹.

Bizningcha, mamlakatimiz o'z taraqqiyoti yo'lini tanlab olgan hozirgi sharoitda mahalliychilikka qarshi kurash olib borish katta amaliy ahamiyatga ega. Yoshlar qaysi viloyatdan bo'lismidan qat'iy nazar, bir millat farzandlari ekanliklarini, milliy birlik va birdamlikni ta'minlabgina O'zbekistonni jahondagi rivojlangan davlatlardan biriga aylantirish mumkinligini chuqur anglab yetmoqlari kerak. Milliy birlik tuyg'usi kishilarining qalbida chuqur tomir otmasa, iymon va e'tiqodga aylanmasa, millatning kelajagi porloq bo'lmaydi, milliy ong rivojlanmaydi.

¹ Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: “Istiqlol”, 2009, - B.31.

Milliy ong shakllanishi va rivojlanishi milliy qadriyatlarni tiklash, o'rganish, hayotga keng joriy qilish bilan bog'liqdir. Milliy o'z-o'zini anglash jarayoni chuqurlashishining asosiy shartlaridan biri ham shu¹.

O'zbeklar insoniyatning ma'nnaviy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan boy madaniy meros, buyuk qadriyatlarning egasi. Ota-bobolarimizdan qolgan ulkan moddiy va madaniy merosni bir daryo deb tasavvur etsak, bu boradagi bilimlarimiz undan bir tomchi xolos².

Yaqinlarga qadar o'z madaniy merosidan bexabar bo'lган millat edik. Bu bizning milliy loqaydigimiz bilan belgilangan fojea emas, balki 135 yil davomida izchillik bilan amalga oshirilgan mustamlakachilik siyosatining natijasidir. Hozirgi kundagi eng muhim vazifalardan biri feodal tarqoqlik, mustamlakachilik va sovet tuzumi davrlaridagi g'aflat uyqusidan tezroq, uyg'onish, millatimizning iste'dodi, qobiliyati, qadr-qimmatini jahonga to'laroq namoyon etish hisoblanadi. O'zbeklar kim ekanini faqat ularning o'ziga emas, balki jahondagi barcha xalqlar ham yaxshi bilsin.

Hozirga qadar o'tmish ajdodlarimizning jahon fani va madaniyatiga qo'shgan hissasi o'zimizdan ko'ra dunyodagi ko'plab mamlakatlarda ma'lum va mashhur edi.

1993 yilning kuzida G'ijduvon shahrida buyuk mutafakkir Abduxoliq G'ijduvoniyning tug'ilganiga 850 yil to'lishiga bag'ishlangan ilmiy anjuman bo'lib o'tgan. Italiya respublikasining O'zbekistonidagi elchisi anjumanda so'zga chiqib, "Men dunyoning ko'plab mamlakatlarida bo'lганман. О'sha yirik mamlakatlarda shu o'lkada yashab, jahon sivilizatsiyasi tarixida o'chmas nom qoldirgan bir yoki ikki olimning nomini eshitganman. O'zbekiston tuprog'ida bunday buyuk siymolar shunchalik ko'p yashab ijod etganki, ularning nomini sanab chiqish ham qiyin. Shunday buyuk allomalarni jahonga yetkaznb berган mamlakatning xalqiga va tarixiga hurmat bilan qaramaslik aslo mumkin emas", deganida katta haqiqat bor³.

¹ Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi.-T.: "Faylasuflar jamiyati", 2004, -b.12.

² Jabborov I. O'zbeklar. -T.: "Sharq", 2008, -b.183.

³ Yusupov E. Inson kamolotining ma'nnaviy asoslari. T.: "Universitet", 1998, -b.169.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev bu haqida quyidagilarni aytib o'tganar: "Barchamizga ma'lumki, har bir suveren davlat o'zining betakror tarixi va madaniyatiga egadir. Bu tarix, bu madaniyatning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi esa, haqli ravishda shu mamlakat xalqi hisoblanadi.

O'zbekistonimizning ko'p asrlik tarixi va keyingi 25-yillik rivojlanish davri, o'z davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlashga qaratilgan taraqqiyoti bu haqiqatni yana bir bor yaqqol tasdiqlab berdi. Ana shu buniyodkorlik jarayonining qudratli va hal qiluvchi kuchi, hech shubhasiz, ko'pmillatli xalqimizdir.

O'zbek xalqining necha ming yillik tarixida qanday murakkab davrlar, og'ir sinovlar bo'lganini barchamiz yaxshi bilamiz. O'zbekistonning eng yangi tarixi va biz erishgan olamshumul yutuqlar mard va matonatli xalqimiz har qanday qiyinchilik, to'siq va sinovlarni o'z kuchi va irodasi bilan yengib o'tishga qodir, deb baralla aytishga to'la asos beradi"¹.

Afsuski, biz o'zimiz shu haqiqatni sovet totalitar tuzumi sharoitida tula anshab yetmadik. So'nggi yillar davomida tariximiz va madaniy merosimizni o'rganish borasida katta tadbirlar, jumladan Imom Buxoriy, Imom Iso Termizi, Najmuddin Kubro, Zamaxshariy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Boxovuddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Ahmad Farg'oniy, Zaxiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning tavalludiga bag'ishlangan yirik anjumanlar, tantanalar o'tkazildi. Buyuk Temur haqidagi tarix haqiqati tiklanishi ham madaniy hayotimizda katta voqeа bo'ldi. Bular milliy ongimiz o'sib, tariximizga hurmat bilan qarash yo'lidan borayotganimizning ifodasidir².

Tarix haqiqatini tiklash – o'zbek millatining obro'-e'tiborini, qadr-qimmatini, o'ziga ishonchini tiklash demakdir. Hozirgi kunda o'zbek xalqi boy madaniy merosga ega ekani yanada to'laroq ma'lum bo'lmoqda. O'zbekistonda yashagan olimlar, mutafakkirlar, shoirlar, me'morlar jahon fani, madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissasini kengroq tasavvur eta boshladik. O'zbek xalqining

¹ Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. //Xalq so'zi, 14 dekabr 2016 yil.

² Sharifxo'jayev M., Davronov Z. Ma'naviyat asoslari.-T.: "Moliya instituti", 2005,-b.249.

madaniyati umuminsoniy sivilizatsiyasining tarkibiy qismi ekanini, shu bilan birga, milliy ma’naviy kamolotimizga boshqa xalqlar xam katta ta’sir ko’rsatganini inkor etish mumkin emas. Imom Buxoriy, Al Xorazmiy, Ahmad Farg’oniy, Ibn Sino, Beruniy, Ulug’bek va boshqalar qoldirgan merosni qo’shni mamlakatlardagi fan va madaniyat taraqqiyotidan ajratib o’rganib bo’lmaydi. Kubroviya, Yassaviya, Naqshbandiya tariqatlari qo’shni sharq mamlakatlarida shakllangan tasavvuf ta’limotining davomi, yangi, yuksak bosqichidir. Najmidtdin Kubro merosini Ruzbexon al Misriy, Bobo Faroj, Ismoil Kasriy ta’limotlarisiz to’la tushunib bulmaydi. Alisher Navoiy ham Sa’diy, Rudakiy, Jomiy, Nizomiy kabi shoir va allomalarini o’zining ustoziga, deb bilgan¹.

Demak, o’z millatining merosini, tarixini ulug’lagan holda boshqa millatlarning ham jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo’shgan hissasini to’g’ri baholay bilish yetuk milliy onglilikdan darak beradi.

Ona zaminimizda tugilib kamol topgan allomalar haqida so’z borganida yoshlارимиз ко’pincha Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino, Forobiy, Farg’oniy, Ulug’bek, Navoiy, Bobur singari siymolarni kuz oldiga keltiradilar. Bularning nomi va merosi ko’hma tariximizning shukuhdi bir sahifasi, xolos. Bu nomlar ham avval jahonga ma’lum va mashhur bo’lib, keyin bizga yetib keldi. Lekin shunday olimlar, buyuk allomalar borki, ularning nomi, merosi hozirga qadar xalqimizga ma’lum emas. Muhammad Iso Termizi, Imom Ismoil Buxoriy, Najmiddin Kubro, Abduxoliq G’ijduvoniy, Baxovuddin Naqshband me’rosini o’rgana boshladik. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlab o’tganlaridek, “Islom olami jahon fani va sivilizatsiyasiga qo’shgan beqiyos hissasi bilan faxlanishga to’la haqlidir. Xususan, Markaziy Osiyo hududi Sharq Renessansining yirik markazlaridan biri sifatida butun dunyoda ma’lum va mashhur bo’lgan. Bu haqda gapirganda, avvalo, ulug’ vatandoshlarimiz – algoritm asoschisi **Al-Xorazmiy**, qomusiy olim Al-Farg’oniy, geodeziya va mineralogiya fanlari rivojiga ulkan hissa qo’shgan **Abu Rayhon Beruniy**, G’arbda Avitsenna nomi bilan tanilgan **Ibn Sino**, davlat arbobi

¹ Oripova M. Ma’naviyat tarixi. –B.: “Rizograf”, 2009, -b.194.

va buyuk astronom **Mirzo Ulug’bek** singari mutafakkir zotlarning nomlarini hurmat bilan tilga olamiz”¹.

O’tmishni chuqur bilish kelajakdagi taraqqiyot uchun yangi, samarali yo’llar topa olishga imkon beradi. Tarixning bu haqiqatini xolisona, odilona bilgan millat o’zligini, chuqurroq anglab olib, kelajak sari ishonch bilan mag’rur bosh ko’tarib boradi.

Milliy ong-milliy mas’uliyatdir. Milliy mas’uliyat har bir fuqaro o’z manfaatlarini millat, milliy davlat manfaatlari bilan bog’lay olishidir. Milliy mas’uliyatning muhim jihatni milliy manfaatlarni anglashda ko’rinadi. Shaxs va uning manfaatlarini siyosiy aqidalar soyasida qoldirib ketgan, mavhum ijtimoiy manfaatlarning to’liq hukmroilagini ta’minlashga moslashtirilgan siyosat va mafkura barham topdi.

Taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida shaxs, uning faoliyati, qobiliyati va imkoniyatlari, manfaatlari mupgarakligi tobora serqirraroq, bo’lib ko’zga tashlanmoqda. Lekin bu yangi sharoitlar va imkoniyatlar har bir shaxs faqat o’z manfaatlari doirasida qolib ketib, boshqalar bilan ishi bo’lmasligi kerak, degan ma’noni bildirmaydi. Agar kishilar uz manfaatlari qobig’ida qolib, ularning har biri alohida dunyo bo’lib qolsa, manfaatlar o’rtasidagi ziddiyatlar ham kuchayib ketadi.

Bunday holda ma’naviy tubanlashish boshlanadi, jamiyatda ijtimoiy falokatlar yuz beradi. Shaxsiy manfaatlar muammosi qanchalik tez va har tomonlama hal etshmasin, har bir inson mavjud ijtimoiy munosabatlar majmuasiga kiradi. U qanchalik aqli, tadbirkor, ishbilarmon bo’lmasin, uning butun hayotiy faoliyati odamlar jamoasidagi munosabatlardan tashqarida bo’lmaydi. Bu boradagi bog’liqlikni anglash, har ishda vatan, millat manfaatlarini o’ylash ham milliy va fuqorolik mas’uliyati hisoblanadi.

Mas’uliyatni sezmay o’z huquqi uchun kurashish ham ma’naviy zaiflikning belgasidir. Burch, mas’uliyat tuyg’usi o’z haqqi, huquqini anshashga asos bo’ladigan ma’naviy zamindir. O’z huquqini tanigan, talab qilgan inson

¹ O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkilotining fan va texnologiyalar bo'yicha birinchi sammitidagi nutqi. //Xalq so'zi 10 sentyabr 2017 yil.

boshqalarning ham huquqini hurmat qilmog'i zarur. Aks holda shaxsning o'z huquqi uchun kurashishi xudbnnlikka aylanib ketadi. Har kanday davrda ham jamiyatda taraqqiyot, tinchlik, totuvlik, osoyishtalik, insonparvarlik, hamkorlik va hamjahatlik bo'lsagina shaxsning orzu-umidlari ushaladi.

Har bir shaxs o'zini jamiyatining, xalqining bir bo'lagi deb bilishi, manfaatlar mushtarakligini tushunishi, o'z faoliyatida boshqa shaxslar, millatlar, mamlakat va butun insoniyat manfaatlarini ham e'tnborga olish ma'naviy kamolatning ifodasıdir. Prezidentimiz aytganlaridek, “bizning davlatimiz ko'p millatli va ko'p konfessiyali davlat. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Bu borada, hech shubhasiz, xalqimizga azaldan xos bo'lgan bag'rikenglik an'analari muhim rol o'yamoqda.

Ana shu haqiqatning tarixiy tasdig'i sifatida bir misol keltirmoqchiman. Samarqand shahrida Sohibqiron Amir Temur davrida bunyod etilgan, Doniyor payg'ambar nomi bilan ataladigan maqbara islom, xristian va yahudiylit dini vakillari tomonidan birdek e'zozlanadi. El-yurtimiz necha asrlardan buyon bu qutlug' qadamjoni asrab-avaylab, obod qilib, unga hurmat-ehtirom ko'rsatib kelmoqda. Shu birgina misolning o'zi olijanoblik, ezgulik va tom ma'nodagi bag'rikenglik fazilati xalqimiz tabiatni, mentaliteti asosini tashkil etishidan dalolat beradi”¹.

Demak, milliy ong milliy manfaatlarni anglash hamdir. O'zbekistonning, o'zbek xalqining ravnaqi, yutuqlari mamlakatimizda yashayotgan har bir fuqaroning yutug'idir. Mamlakatimiz tinch bo'lib, hamma yerda osoyishtalik barqaror bo'lsa, millatimiz ahil va birdam bo'lib yashasa, bu har bir fuqoroning baxti hisoblanadi. Mamlakat, millat manafaatlarini o'ylamaydigan kishilar o'z taqdiriga ham befarq qaraydilar. Shuning uchun insonning yashashi va mehnat qilishi millat va mamlakat manfaatlarini chuqur anglashi bilan bog'liq.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi. //Xalq so'zi, 15 iyun 2017 yil.

Mustaqil taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida inson ma’naviy mas’uliyatining milliy ong o’sishi, fuqarolik mas’uliyati bilan bog’liq, tomonlariga ham jiddiy e’tibor berish zarur. Hozir O’zbekistonda ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlar har tomonlama kamol topishiga sharoitlar mavjud. Asriy an’analalarimiz bilan bevosita bog’liq bo’lgan ishbilarmonlik, tijorat ham keng rivoj topmoqda. Lekin milliy ong va mas’uliyat tuyg’usi hammamizdan XXI asrda yashayotga nimizni, mustaqil taraqqiyotimizning iqtisodiy va ijtimoiy muammolarini to’laroq va chuqurroq tushunishimizni talab qilmoqda. Bu masalalarni ham shaxsiy manfaatlar kobig’idan chiqib, yetuk ma’naviyat zaminida, milliy manfaatlarni e’tiborga olib tahlil qilishimiz kerak. Zero, konstitutsiyamizga mustahkamlanganidek, “O’zbekiston Respublikasi o’z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”¹.

Milliy munosabatlarni ijtimoiyadolat mezonlari asosida rivojlantirish, barcha xalqlarning tili, madaniyati, urf- odatlariga hurmat bilan qarash, ularni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratib berish, hamma sohada do’stlik, ahillik, hamjikatlik, hamkorlikni ta’minalash mustaqil O’zbekiston taraqqiyotining asosiy ma’naviy omillaridan biridir.

Milliy ongning yetukligi milliy tillarga munosabatda ham yaqqol namoyon bo’ladi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tilga e’tibor - elga e’tibor, ekanini ko’rsatib o’tgan edi. Har bir xalqning o’z tiliga e’tibori milliy o’z-o’zini anglash darajasini ko’rsatadi. Sovet totalitar tuzumi sharoitida o’zbek tilini qo’llash va rivojlanishining imkoniyatlari cheklab qo’yilganligini hammamiz yaxshi bilamiz. Jamiyat taraqqiyoti natijasida barcha millatlar qo’shilib ketadi degan fikr milliy tillar ham oxir-oqibatda yyo’ bo’lib ketadi, degan ma’noni bildirar edi. Bunday siyosat natijasida ayrim ziyolilarda milliy tilning istiqboliga nisbatai nigilik munosabat shakllanadi. Olimlarimiz ham uzarining ilmiy ishlarini rus tilida yozishga majbur bo’lib qoldilar.

¹ O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O’zbekiston”, 2017, -b.3.

Respublikamizda ro'y bergan milliy ong, mas'uliyat tuyg'usi yuksalishi xalqimizning o'z ona tili taqdiriga bo'lgan munosabatida ham yaqqol namoyon bo'ldi, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berishni talab qilish katta ijtimoiy harakatga aylandi. O'zbekiston Oliy Kengashining 1989 yil 21 oktyabrda bo'lib o'tgan majlisida O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilindi¹. Bu mamlakatimiz tarixida katta voqeа bo'ldi. Shu yo'l bilan o'zbek tilini ish yuritishda, ilmiy tadqiqot ishlarida, ta'lim-tarbiya sohasida keng qo'llashga yo'l ochildi.

Milliy ong millatning obro'sini, qadr-qimmatini himoya qila bilishdir. O'zbeklarda qarz ikki qo'ldan chiqadi, degan maqol bor. Boshqa xalqlarning milliy xususiyatini, madaniyati, tilini, manfaatlarini hurmat qilar ekanmiz, o'z millatimizga ham shunday adolatli munosabatda bo'lishni talab qilishga haqqimiz bor. Zero, Konstitutsiyamizda "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar"², -deb mustahkamlab qo'yilgan.

Tadqiq etishimizcha, milliy ongni rivojlantirishda uzoq, o'tmishimizni ham, yaqin o'tmish saboqlarini ham hisobga olmoq lozim. Tarix - uzoq, jarayon, kechagi kun bilan hozirga kun esa uning bir-biri bilan bevosita bog'langan xalqalaridir. Ijtimoiy taraqqiyotning murakkab burilish davrlarida ba'zan ehtiros va hissiyotlar aql-idrokdan ustun kelib qolishi mumkin. Bu ham jamiyatdagi ma'naviy kamolot darajasini ko'rsatuvchi bir hol. Har qanday sharoitda ham tarixiy jarayonlar mohiyatini baholashga jahl bilan emas, balki aql bilan yondashmoq zarur.

Demak, milliy ong o'tmish saboqlarini to'g'ri anglash bilan birga, kelajakni ham ko'ra bilishga ma'naviy zamin bo'ladi. Inson tafakkuri, salohiyati qanchalik kuchli bo'lsa, u o'z kelajagiga komil ishonch bilan qaraydi. Yetuk milliy ong o'tmish merosi va an'analariga ko'r-ko'rona taqlid qilishni istisno etadi. Istiqbol muammolariga o'tmishdagi tajriba, ishlab chiqarish shakllari, turmush tarzi, axloq-

¹ Shamsutdinov R. Vatan tarixi. –T.: Sharq, 2010, -b.465.

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2017, -b.7.

odob mezonlarinigina emas, balki hozirgi davr imkoniyatlari, talab va ehtiyojlarini ham hisobga olib yondashmoq kerak. Taraqqiyot yo'liga olg'a qarab borar ekanmiz, uz o'tmishimizgagina mahliyo bo'lsak, umuminsoniy qadriyatlarni chetlab o'tsak ma'naviy kamolot cho'qqilariga chiqa olmaymiz. Bu boradagi milliy qadriyatlarimiz ma'naviyatimizning asosi bo'lsa ham, hozirgi davr talablariga mos keladigan bilimli, ishbilarmon, yuksak axloq va odobli shaxsni tarbiyalash uchun yetarli bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, milliy ong kamol topayotgan millatgina boshqa millat manfaatlariga to'g'ri munosabatda bo'lib, ularga xolisona baho bera oladi. Milliy ong milliy birlik va birdamlik tuyg'usi shakllanishining asosidir. Milliy ongning bu xussiyati globallashuv sharoitida yoshlarni tarbiyalashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

1.2. Milliy o'zlikni anglash va uning mohiyati

Milliy o'zlikni anglash har bir inson uchun ma'naviy barkamollikning muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. Chunki, u avvalo, o'zining kimligini bilib olsa, qaysi millatga mansubligini tushunib yetsa, avlod, ajdodlari, ulardan qoldirilgan moddiy va ma'naviy merosni o'zlashtirsagina to'laqonli shaxs darajasiga yetishi mumkin. Bunday shaxslar millatning aksariyat ko'pchilik qismini tashkil qilsagina unday millatning istiqboli buyuk bo'ladi. Shuning bilan birga o'zini chuqur anglab yetgan, ko'zi ochilgan, aqli raso, g'oyaviy-siyosiy jihatdan uyg'ongan va jipslashgan xalq va millatni, o'tmishda bo'lganidek, mustamlakachilik kishanlarida ushlab turish, tili, madaniyati, qadriyatlarini oyoq osti qilish, boyliklarini talab ketish, huquqlarini poymol etish, davlat mustaqilligidan judo qilish aslo mumkin emas. Chunki ana shunday ma'naviy-ruhiy salohiyatga ega bo'lgan millatning har bir vakili o'z millati manfaatlarini har qanday boshqa manfaatlardan ustun qo'yishga va o'zining millat oldidagi mas'uliyatini yuksak darajada anglaydi va uning istiqboli uchun fidoyilik ko'rsatishga qodirlik darajasiga ko'tariladi.

Zero, o'zlikni anglash tufayli inson o'tmishini xotirlaydi, buguni bilan taqqoslaydi, xulosa chiqaradi va shu asosda kelajakka nigoh tashlaydi. Ya'ni o'zlikni anglash insonni shaxs darajasida ko'tarib, ma'naviy kamolot sari yetaklaydigan ruhiy kuchdir¹.

Tadqiq etishimizcha o'z-o'zini anglash bu:

- ❖ xalqning, millatning o'tmish tarixiy taraqqiyot yo'lini, ota-bobolari, nasl-nasabi, avlodu-ajdodlarining kim bo'lganligi va ularning jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalarini bilib olishdir.
- ❖ Milliy o'zlikni anglash - millat yashayotgan Vatanning porloq istiqbolini ta'minlash uchun qanday imkoniyatlar va qulayliklarga ega ekanligini chuqur anglab yetish, ular bilan cheksiz faxrlanish, mavjud imkoniyatlarni yuzaga

¹ Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati.- T.: "G'ufor G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2009, -b.410.

chiqarish, real voqelikka aylantirish uchun o'zini safarbar etish, barcha imkoniyatlari, kuch g'ayratini ishga solish demakdir.

Millat mavjud bo'lishi uchun til, hudud va ma'naviyat asosiy shart bo'lgani kabi milliy o'zlikni anglash ham asosiy zaruriy shart hisoblanadi. O'zlikni anglash o'z mohiyatiga ko'ra millat va elatlar uchun xos bo'lgan ma'naviyat xususiyatlarini ifoda etib, o'z funktsiyasiga ko'ra milliy manfaatlarni himoya qiladi. Shunday qilib, har millat va elatning o'zini real mavjud sub'ekt, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarini ifodalovchi etnik birlik, til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarga mansubligini, manfaatlar va ehtiyojlar umumiyligini tushunib yetishga milliy o'zlikni anglash, - deb ataladi. Milliy o'zlikni anglash millat birligining mustahkamligini, millat manfaatlarining, shaxs, mahalliychilik manfaatlaridan ustun turishini anglash darajasi bilan bog'liqdir¹.

Milliy o'zlikni anglash real hayotda millat sha'ni, qadr-qimmati, obro'-e'tibori poymol etilganda yoki millatning manfaatlariga nisbatan ikkinchi bir tomondan zo'ravonlik harakatlari boshlanib ketgan holatlarda yanada kuchli va yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday holatda, millatning barcha vakillari qaysi lavozimda xizmat qilishi, qaysi darajada boy yoki kambag'al bo'lishidan qat'iy nazar o'zaro birlashib ketadilar va millatning manfaatlarini himoya qiladilar.

Milliy o'zlikni anglash, millatning til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar, hudud yagonaligi, ma'naviyatdagi o'ziga xosligidan iborat belgilari kabi millatning mustaqil belgisi hisoblanadi. Milliy o'zlikni anglash millatning mustaqil belgisi ekanligi— milliy manfaatlar, ehtiyojlar umumiyligini himoya qilish va milliy taraqqiyotga erishish va uning jahon taraqqiyotidagi o'rnini mustahkamlash zaruriyatini anglash bilan belgilanadi. Zero "...inson burunsiz, quloqsiz va og'izsiz yashashi mumkin bo'limganidek, millatsiz ham yashashi ham mumkin emas. Ehtimol, u Vatandan yiroqda dunyoga kelar millat tarbiyasini olish imkoniyatidan ham mahrum bo'lgan bo'lishi mumkin. Ammo bu uning Vatansiz va millatsiz ekanligini bildirmaydi. Chunki, u o'zining ulg'ayishi va

¹ Otamurodov S.O. Abduraxmonov M. Xusanov S. Ma'naviyat asoslari. T.: "Universitet", 2008,-b.236.

o'zligini anglashi jarayonida qalbi, ichki ruhiyati, olami bilan o'zining avlod-ajdodlarini bilib olishga, ular qo'nim topgan Vatanni, ularning millatini qo'msab yashaydi va unga talpinadi. Bu hissiyat va ruhiyat unga ota— onasining qoni va qalbi orqali tabiiy ravishda o'tgan”¹.

Shu ma'noda ham milliy o'zlikni anglashga bo'lgan hatti-harakatlarning yuzaga kelishini ham inson bolasiga hos bo'lgan ma'naviy fazilat- deyish mumkin bo'ladi.

Milliy o'zlikni anglash omilining qudrati quyidagi sharoitlarda ko'proq namoyon bo'ladi:

Birinchidan, agar milliy o'zlikni anglash rivojlangan bo'lsa, yuqorida qayd etganimizdek, millatning manfaatlariga, ayniqsa, sha'ni, qadr-qimmati, obro'-e'tibori, g'ururi poymol etilishiga qaratilgan harakatlar yuzaga kelgan sharoitlarda, millatning barcha vakillari birlashib ketadilar, hatto millatning ichida o'zaro muxolifatda bo'lgan tomonlar ham millatning sha'ni, g'ururi, obro'-e'tiborini himoya qilish manfaati yo'lida birlashadilar.

Ikkinchidan, milliy o'zlikni anglash ruhiy, his-hayajon, ehtiros omilidir. Mazkur holat tashqaridan qaraganda sezilmaydi. Uni millatning hatti-harkatlarida, intilishlarida va maqsadlarini amalga oshirishlaridagi salohiyati orqali bilib olish mumkin bo'ladi. Ruhiy his-hayajon va ehtiroslarning “portlashi” millatning xarakteri, xususiyatlari, milliy g'oyalarni yaratuvchi, uning taraqqiyotida oldingi safda turuvchi ziyorilarning salohiyatiga bog'liq.

Uchinchidan, milliy o'zlikni anglash omili faqat milliy manfaatlarni himoya qilish bilan cheklanmaydi, balki milliy taraqqiyot jarayonida, uning oldida yuzaga keladigan ichki muammolarni hal qilish hamda millatni birlashtiruvchi va harakatga keltiruvchi vazifani ham bajaradi. Bu muammolar mamlakatda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda sodir bo'lishi mumkin.

¹ Otamurotov S. Milliy rivojlanish falsafasi. Toshkent“Akademiya”, 2005,-b.11.

To'rtinchidan, milliy o'zlikni anglash millatning muhim belgisi sifatida, faqat uning manfaatlarini ifodalab yoki himoya qilish bilan cheklanmaydi, balki shular bilan birga uning abadiyligini ta'minlab turuvchi mustahkam qo'rg'on hamdir. "Milliy o'zligini anglash... o'zining katta salohiyati bilan millat uchun zarur bo'lgan asosiy tizimida yetakchi o'rinni egallaydi. U millatning yuragi, qalbi, tomirlarida oqadigan qoni va gavdasini tik ushlab turuvchi jonidir. O'zligini anglashdan to'xtagan yoki undan mahrum bo'lgan har qanday millat o'limga mahkumdir. U o'zga millatlarga "yem" bo'lib, ularga assimilyatsiya orqali qo'shilib, oqibatda yo'q bo'lib ketadi"¹.

Milliy o'zlikni anglash o'zining ana shu katta salohiyati bilan millat ma'naviyatining o'zagini ham tashkil qiladi. Siyosiy ma'naviyati, milliy ongi rivojlangan, milliy jihatdan o'zini-o'zi anglab yetgan xalq, millat mustaqillikning buyuk kuchiga aylanadi. Millatning, xalqning kuch-qudrati uning soni bilan o'lchanmaydi, balki siyosiy yetukligi, milliy ongni o'sganligi, milliy g'ururi va hissiyoti, milliy uyushganligi bilan belgilanadi. O'zligini anglagan millatni harbiy ustunlik bilan vaqtincha qaram qilish mumkin, ammo uni batamom qaram qilib bo'lmaydi. Undagi milliy g'urur har qanday sharoitda ham ozodlikka chiqishi uchun kurash olib borishga undaydi. Shunday qilib, milliy o'zlikni anglash millatning eng muhim belgisi, uning rivojlanishi va kelajagini ta'minlovchi omili hisoblanadi. Mustaqillikni qo'lga kiritish o'zbek xalqi hayotida milliy o'zlikni anglash yo'lidagi buyuk inqilob hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Yuksak ideallar yo'lida fidoyilik ko'rsatib yashash, o'zligimizni anglash, g'urur va iftixor, milliy manfaatlarimizni himoya qilish uchun bel bog'lab maydonga chiqish – siz, ijod ahliga xos ezgu fazilat ekanini hammamiz yaxshi bilamiz va buni yuksak qadrlaymiz"².

Chunki chorizm tomonidan bu o'lkaning bosib olinishi oqibatida Turkiston xalqlarining ma'naviyati, ma'rifatiga yetkazilgan katta zararlar va Rossiyada

¹ Otamurotov S., Otamurotov S. O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish(sotsial-falsafiy taxlil). – T.: "Yangi asr avlod", 2003,-b.28

² Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyorilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 4 avgust 2017 yil.

amalga oshirilgan Oktyabr to'ntarishidan keyin o'rnatilgan sho'rolar hukumati tomonidan davom ettirilgan zo'ravonlik siyosati xalqimizning g'ururini poymol etishga, uning jahon sivilizatsiyasida tutgan orniga salbiy ta'sir ko'rsatgan edi. Sho'rolar davrida o'zbek millati nomi faqat sobiq SSSR hujjatlarida qayd etilsa-da, u xalqaro hayotda mustaqil sub'ekt sifatida tan olinmay kelingan edi.

Mustaqillik uchun kurash, garchand chorizmning mustamlakachilik siyosati davridan boshlangan bo'lsa ham, u sho'rolar tuzumi davrida yanada keskin tus oldi. Ammo o'zbek xalqining ko'zga ko'ringan millatparvar farzandlarining izchillik bilan bosqichma-bosqich qirib yuborilishi milliy o'zlikni anglash jarayonining ommaviy ravishda yuksalish imkonini bermagan edi. 80-yillarga kelib sobiq SSSR iqtisodiyotidagi inqiroz, uning siyosatda xalqaro jandarmga aylanishga intilishi, ma'naviyat va ma'rifikatdagi qashshoqlashuvi, bu tuzumning millatlarni taraqqiy ettirishga noqobiligini yana bir bor tasdiqlagan edi. Bu jarayon sobiq SSSR tarkibiga kirgan millatlarning mustaqillikka intilishini, o'zlikni anglashning zimdan o'sib borishini tezlashtirib yubordi. 80-yillarning oxiri 90-yillarning boshlarida millatlararo munosabatlarda turli nizolar hamda fojalarning kelib chiqishi milliy o'zlikni anglashning yashirin qudrati yuzaga qalqib chiqqanligini bildirar edi. Bu qudratli jarayon oqibatida "metindek" mustahkam hisoblangan qudratli SSSR davlati va butunjahon sotsializm tizimi halokatga uchradi. Sobiq xalqlar turmasi o'rnida mustaqil davlatlar vujudga kelib, millatlarning o'zligini anglashga intilishi kuchayib ketdi. Ana shu murakkab kurash jarayonini o'z boshidan kechirgan o'zbek xalqi mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng, o'zining mustaqil millat maqomini tiklash uchun dadil harakat qildi¹.

Xususan, mustaqillik yillari bosib o'tilgan tarixan qisqa davr mobaynida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda katta ishlarni amalga oshirdi. Bu yillarda millatimizning o'zligini anglashi jadal rivojlanib bordi. Bu milliy o'zlikni anglash jarayonining yuksalib borish xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ldi:

¹ Tulenov J., G'afurov Z. Mustaqillik va milliy tiklanish. T.: "Yangi asravlod", 1995,-b.20.

Birinchidan, sobiq tuzum sharoitida ma’naviy-ma’rifiy sohalarda bu tuzumni madh etuvchi ishlar zo’ravonlik va makkorlik bilan qaysi shaklda va usulda amalga oshirilmasin, millatimizning dunyoqarashini butunlay o’zgartira olmadi.Xalqimiz har qanday sharoitda ham o’zligiga qaytish kayfiyati va ruhiyati bilan yashab keldi. Chunki sho’rolar tuzumi bermoqchi bo’lgan ma’naviyat va ma’rifat, uni shakllantirish milliy madaniyatlar rivojlanishining ob’ektiv qonunlariga asoslanmay, balki sub’ektiv kuchning, ya’ni kommunistik mafkuraning zo’ravonligiga tayangan edi. Bundan tashaqari, sobiq tuzum bermoqchi bo’lgan ma’naviyat va ma’rifat milliy madaniyatlarning o’zaro ta’siri va shu asosda boyishga emas, balki rus millati madaniyati va ma’rifatini boshqa“yirik” millatga singdirishga qaratilgan edi.

Sobiq sovet jamiyati madaniyatining modeli“nazariy” jihatdan “asoslangan” bo’lsa, ammo u amalda mavhum tushuncha edi(mazmunan sotsialistik, shaklan milliy). Mohiyat jihatdan esa o’zbek xalqi ajdodlari tomonidan asrlar davomida yaratilgan va bugungi avlodlarga meros bo’lib o’tgan ma’naviyat va ma’rifatga mutlaqo zid edi.Mustaqillikka erishishimiz bilan bunday holatlarga Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida barham berildi¹.

Ikkinchidan, mustaqillikning dastlabki bosqichlarida milliy o’zlikni anglashning xarakterli xususiyati shunda bo’ldiki, milliy qadriyatlardan ko’ra diniy qadriyatlarni ko’tarish ustivorlikni tashkil qildi. Buning ob’ektiv sababi bor edi. Xususan, o’zbek xalqi ma’naviyati va ma’rifati rivojlanishining sho’rolar tuzumi o’rnatilgunicha bo’lgan davri islom ma’naviyati va ma’rifati bilan chambarchas bog’langan bo’lib, u millatimiz ongi va ruhiyatining muhim qismini tashkil qilib kelgan. Xuddi shuning uchun ham bolsheviklar islomga qarshi kurash yo’li bilan millatni ham yo’q qilish mumkin, deb hisoblaganlar va shu siyosatni izchillik bilan amalga oshirishga intilganlar. Ularning bu harakatlari bejiz emas edi.

¹ Imomnazarov M,Eshmuxamedova M. Milliy ma’naviyatimiz asoslari. –T.:, “ Toshkent islom universiteti”, 2001,-b.29.

Chunki, Birichi prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, “Tarixdan ma'lumki bir xalqni o'ziga tobe qilishni istagan kuchlar, avvalo uni o'zligidan, tarixidan, madaniyatidan judo qilishga intiladi”¹. Mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin tarixiy xotirani va diniy qadriyatlarni tiklash milliy tiklanishning, o'zlikni anglashning muhim omili sifatida ustivor bo'lib keldi. U milliy birlikni mustahkamlashda va milliy taraqqiyotni yangi bosqichga ko'tarishda amaliy ahamiyat kasb etdi.

Mustaqillikni mustahkamlash yillarida milliy o'zligimizni anglashning o'sishi ikki yo'nalishda:

a) milliy va diniy qadriyatlarmizning uyg'unligi milliy o'zligimizni anglashning asosiy manbai sifatida yetakchi ahamiyatga ega bo'ldi. Ana shu qadriyatlarning o'zlashtirilishi millatdoshlarimizning qaddini ko'tardi, o'zini ular ichida munosib o'ringa ega ekanligini bilib olishiga keng imkoniyatlar yaratdi. Buyuk tarix, ulkan ma'naviy meros va ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan diniy qadriyatlар mustaqillik sharofati bilan millatimizga o'zining “men”ligini namoyon etishi uchun zamin bo'ldi. Ana shu zaminlarimiz chuqur va boy bo'lganligi sababli ham millatimiz o'zining ma'naviy“qiyofasini” tiklashi va o'zligini anglashi davlatimizning bu jarayonning rivojlanishiga bergen e'tibori natijasida barqaror kechdi;

b) Har qanday millatning o'zligini anglashi, faqat o'z doirasi bilan cheklanib qolishi unga taraqqiyot uchun imkon bermaydi. Shu ma'noda milliy o'zlikni anglashning ikkinchi omili, har bir millatning dunyo xalqlari erishgan yutuqlar va tajribalarni qaysi darajada samarali foydalana bilish bilan bog'liq bo'ladi².

Mamlakatimizning mustaqilligi millatimizning o'zligini anglashida ana shu imkoniyatdan foydalanishga ham katta e'tibor berildi. Mustaqillik yillarida mamlakatimiz yoshlari o'zlarining yuksak intellektual salohiyatlari bilan dunyo

¹ Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchlar. -T.: “O'zbekiston”, 2000 y.-b.11.

² Erkayev A. Milliy g'oya va ma'naviyat. -T.: “Ma'naviyat”, 2002,-b.25.

xalqlarining erishgan yutuqlari va ilg'or tajribalaridan foydalangan holda O'zbekistonni rivojlantirishda faoliyat ko'rsata boshladilar. Yoshlarimiz jahonning rivojlangan mamlakatlarida fan, texnika va texnologiya sohasida qo'lga kiritilgan eng so'nggi yutuqlardan samarali tarzda foydalanish darajasida o'zlarining intellektual salohiyatini rivojlantirishga harakat qidilar va ular bu o'ta murakkab vazifani bajarishga erishdilar. Bu yo'nalishda milliy o'zlikni anglashning ma'nosи shundaki, agar xorijdan fan, texnika va texnologiya yutuqlarini mamlakatimizga keltirish bilan ulardan foydalanishga salohiyati yetadigan fidoyi kadrlar, mutaxassislar va intellektuallar bo'lmasa, ularni xorijdan keltirish zaruriyati yuzaga kelgan bo'lur edi. Bu yana mamlakatning xorijiy mamlakatlarga intellektual jihatdan qaram bo'lib qolishga olib kelishi mumkin edi¹.

Mamlakatimiz yoshlari ana shunday salbiy holatning yuzaga kelishini oldini olishda millatning vakillari sifatida o'zligini namoyish etdilar. Bugungi kunda mamlakatimiz yoshlari nafaqat jahonda qo'lga kiritilgan fan, texnika va texnolgiyalardan samarali foydalanishda jahondagi yuksak darajada rivojlangan mamlakatlarning mutaxassislari darajasida faoliyat ko'rsatmoqdalar, shuning bilan birga o'z qobiliyatlari va intellektual salohiyatlari bilan O'zbekistonning dovrug'ini jahonga yoyishga erishmoqdalar. Bu milliy o'zlikni anglash rivojlanishning mustaqil taraqqiyotimiz davridagi ko'rsatkichlardan birini tashkil qiladi.

Zero, o'zbek millatining dovrug'i, uning o'zligini namoyish etishi, tenglar ichida teng va taraqqiyotda oldingi saflarda borishga qodir bo'lgan milliy o'zligini anglagan vakillarining fidoyilik natijasida keng yoyilib bormoqda. Bugungi ana shu jarayonda yoshlarimizning faol ishtirok etishlari amaliy ahamiyatga egadir. Birinchi Prezident Islom Karimov aytganlaridek, "toki yoshlarimiz milliy o'zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan baravar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin"².

¹ Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. T.: "Universitet", 1998,-b.180.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. . -T.: "Ma'naviyat", 2008,-b.119.

Muxtasar qilib aytganda, milliy o'zlikni anglan, nafaqat o'z zaminlari asosida rivojlanish, o'z millatining manfaatlarini himoya qilish ruhiyatining mustahkamligi, shuning bilan birga millatning jahonning taraqqiy qilgan mamlakatlari darajasida rivojlanish yo'lida fidoyilik ko'rsatishga intilishga harakat qiluvchi vakillarining salmog'ining oshib borishida ham o'z ifodasini topadi. O'zlikni anglashning ko'rsatkichlaridan biri bu taraqqiyotning hozirgi murakkab sharoitida o'z millatining ana shu taraqqiyot tizimida "men"ligini namoyish qila bilishi bilan belgilanadi. Millatimiz ana shu yo'nalishda ham o'zining munosib o'rniga ega bo'layotganligi milliy o'zligimizni anglashning rivojlanayotganligini ko'rsatib turidi. Bu o'z navbatida ma'naviyatimiz rivojiga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazib bormoqda.

II bob. Milliy o’zlikni anglash – barkamol inson ma’naviyatining belgisi

2.1. Barkamol insonda milliy o’zlikni anglash tuyg’usi va uni mustahkamlash masalalari

Milliy o’zlikni anglash har bir inson uchun ma’naviy barkamolnikning muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. Chunki, u avvalo, o’zining kimligini bilib olsa, qaysi millatga mansubligini tushunib yetsa, avlod, ajdodlari, ulardan qoldirilgan moddiy va ma’naviy merosni o’zlashtirsagina to’laqonli shaxs darajasiga yetishi mumkin. Bunday shaxslar millatning aksariyat ko’pchilik qismini tashkil qilsagina unday millatning istiqboli buyo’q bo’ladi. Shuning bilan birga o’zini chuqur anglab yetgan, ko’zi ochilgan, aqli raso, g’oyaviy-siyosiy jihat dan uyg’ongan va jipslashgan xalq va millatni, o’tmishda bo’lgalidek, mustamlakachilik kishanlarida ushlab turish, tili, madaniyati, qadriyatlarini oyoq osti qilish, boyliklarini talab ketish, huquqlarini poymol etish, davlat mustaqilligidan judo qilish aslo mumkin emas. Chunki ana shunday ma’naviy-ruhiy salohiyatga ega bo’lgan millatning har bir vakili o’z millati manfaatlarini har qanday boshqa manfaatlardan ustun qo’yishga va o’zining millat oldidagi mas’uliyatini yuksak darajada anglaydi va uning istiqboli uchun fidoyilik ko’rsatishga qodirlik darajasiga ko’tariladi¹.

O’z-o’zini anglash bu:

- xalqning, millatning uning tarixiy taraqqiyot yo’lini, ota-bobolari, nasl-nasabi, avlod-u ajdodlarining kim bo’lganligi va ularning jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga qo’shgan buyo’q hissalarini bilib olishdir.

- Milliy o’zlikni anglash - millat yashayotgan Vatanning porlok istiqbolini ta’minlash uchun qanday imkoniyatlar va qulayliklarga ega ekanligini chuqur anglab yetish, ular bilan cheksiz faxrlanish, mavjud imkoniyatlarni yuzaga chiqarish, real voqelikka aylantirish uchun o’zini safarbar etish, barcha imkoniyatlari, kuch-g’ayratini ishga solish demakdir. Millat mavjud bo’lishi uchun til, hudud va ma’naviyat asosiy shart bo’lgani kabi milliy o’zlikni anglash ham asosiy zaruriy

¹ Ma’naviy salohiyat. Oliy ta’lim muassasalari professor – o’qituvchilarning uzlusiz malakasini oshirish bo’yicha nazariy va amaliy mashg’otlarning matni.T.:2009. – B. 46.

shart hisoblanadi. O'zlikni anglash o'z mohiyatiga ko'ra millat va elatlar uchun xos bo'lgan ma'naviyat xususiyatlarini ifoda etib, o'z funksiyasiga ko'ra milliy manfaatlarni hikoya qiladi.

Shunday qilib, har millat va elatning o'zini real mavjud subyekt, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarini ifodalovchi etnik birlik, til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarga mansubligini, manfaatlar va ehtiyojlar umumiyligini tushunib yetishga milliy o'zlikni anglash, - deb ataladi. Milliy o'zlikni anglash millat birligining mustahkamligini, millat manfaatlarining, shaxs, mahalliychilik manfaatlaridan ustun turishini anglash darajasi bilan bog'liqdir.

Milliy o'zlikni anglash real hayotda millat sha'ni, qadr-qimmati, obro'-e'tibori poymol etilganda yoki millat manfaatlariga nisbatan tashqi tomondan zo'ravonlik harakatlari boshlainib ketgan holatlarda yanada kuchli va yaqqol namoyn bo'ladi. Bunday holatda, millatning barcha vakillari qaysi bir anonimda xizmat qilishi, qaysi darajada boy yoki kambag'al bo'lishidan qat'iy nazar o'zaro birlashib ketadilar va millatning manfaatlarini himoya qiladilar.

Milliy o'zlikni anglash. millatning- til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar, hudud yagonaligi, ma'naviyatdagi o'ziga xosligidan iborat belgilari kabi millatning mustaqil belgisi hisoblanadi. Milliy o'zlikni anglash millatning mustaqil belgisi ekanligi - milliy manfaatlar, ehtiyojlar umumiyligini himoya qilish va milliy taraqqiyotga erishish na uning jahon taraqqiyotidagi o'rnini mustahkamlash zaruriyatini anglash bilan belgilanadi. Zero "...inson burunsiz, qulqosiz va og'izsiz yashashi mumkin bo'lmasanidek, millatsiz ham yashashi mumkin emas. Ehtimol, u Vatandan yiroqda dunyoga kelar millat tarbiyasini olish imqoniyatidan ham mahrum bo'lgan bo'lishi mumkin. Ammo bu uning Vatansiz va millatsiz ekanligini bildirmaydi. Chunki u o'zining ulg'ayish va o'zligini anglashi jaraynida qalbi, ichki ruhiyati, olami bilan o'zining avlod-ajdodlarini bilib olishga, ular qo'-nim toptan Vatan, ular millatini qo'msab yashaydi va unga talpinadi. Bu hissiyot va ruhiyat unga ota - onasining qoni va qalbi orqali tabiiy ravishda o'tgan"¹. Shu ma'noda ham

¹ Otamurodov S. Milliy rivojlanish falsafasi. T. "akademiya".2005.– b.11.

milliy o'zlikni anglashga bo'lgan xatti-harakatlarning yuzaga kelishini ham inson bolasiga xos bo'lgan ma'naviy fazilat - deyish mumkin bo'ladi.

Milliy o'zlikni anglash omilining qudrati quyidagi sharoitlarda ko'proq
namoyon bo'ladi:

Birinchidan, agar milliy o'zlikni anglash rivojlangan bo'lsa, yuqorida qayd etganimizdek, millatning manfaatlariga, ayniqsa, sha'ni, qadr-qimmati, obro'-e'tibori, g'ururi poymol etilishiga qaratilgan harakatlar yuzaga kelgan sharoitlarda, millatning barcha vakillari birlashib ketadilar, hatto millatning ichida o'zaro muxolifatda bo'lgan tomonlar ham millatning sha'ni. g'ururi, obro'-e'tiborini himoya qilish manfaati yo'lida birlashadilar.

Ikkinchidan, milliy o'zlikni anglash ruhiy, his-hayajon, ehtiros omilidir. Mazkur holat tashqaridan qaraganda sezilmaydi. Uni millatning xatti-harakatlarida, intilishlarida va maqsadlarini amalga oshirishlarilagi salohiyati orqali bilib olish mumkin bo'ladi. Ruhiy his-hayajon va ehtiroslarning "nortlashi" millatning harakatlari, xususiyatlari, milliy g'oyalarni yaratuvchi, uning taraqqiyotida oldingi safda turuvchi ziylolarning salohiyatiga bog'liq.

Uchinchidan, milliy o'zlikni anglash omili faqat milliy manfaatlarni himoya qilish bilan cheklanmaydi, balki milliy taraqqiyot jarayonida, uning oldida yuzaga keladigan ichki muammolarni hal qilish hamda millatini birlashtiruvchi va harakatga keltiruvchi vazifani ham bajaradi bu muammolar mamlakatda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda sodir bo'lishi mumkin.

To'rtinchidan, milliy o'zlikni anglash millatning muhim belgisi sifatida faqat uning manfaatlarini ifodalab yoki himoya qilish bilan cheklanmaydi, balki shular bilan birga uning abadiyligini ta'minlab turuvchi mustahkam qo'rg'on hamdir. "Milliy o'zligini anglash... o'zining katta salohiyati bilan millat uchun zarur bo'lgan asosiy tizimida yetakchi o'rinni egallaydi. U millatning yuragi, qalbi, tomirlarida oqadigan qoni va gavdasini tik ushlab turuvchi jondir. O'zligini anglashdan to'xtagan yoki undai mahrum bo'lgan har qanday millat o'limga mahkumdir. U o'ega millatlarga "yem" bo'lib, ularga assimilyatsiya orqali qo'shilib, oqibatda yo'q

bo'lib ketadi"¹. Milliy o'zlikni anglash o'zining ana shu katta salohiyati bilan millat ma'naviyatining o'zagini ham tashkil qiladi.

Siyosiy ma'naviyati, milliy ongi rivojlangan, milliy jihatdan o'zini- o'zi anglab yetgan xalq, millat mustaqillikning buyo'q kuchiga aylanadi. Millatning, xalqning kuch-qudrati uning soni bilan o'lchanmaydi, balki siyosiy yetukligi, milliy ongi o'sganligi, milliy g'ururi va hissiyoti, milliy uyushganligi bilan belgilanadi. O'zligini anglagan millatga harbiy ustunlik bilan vaqtincha qaram qilish mumkin, ammo uni batamom qaram qilib bo'lmaydi. Undagi milliy g'urur har qanday sharoitda ham ozodlikka chiqishi uchun kurash olib borishga undaydi. Shunday qilib, milliy o'zlikni anglash millatning eng muhim belgisi, uning rivojlanishi va kelajagini ta'minlovchi omili hisoblanadi. Mustaqillikni qo'lga kiritish o'zbek xalqi hayotida milliy o'zlikni anglash yo'lidagi buyo'q inqilob hisoblanadi. Chunki chorizm tomonidan bu ulkaning bosib olinishi oqibatida Turkiston xalqlarining ma'naviyati, ma'rifatiga yetkazilgan katta zararlar va Rossiyada amalga oshirilgan Oktyabr tuntarishidan keyin o'rnatilgan sho'rolar xukumati tomonidan davom ettirilgan zo'ravonlik siyosati xalqimizning g'ururini poymol etishga, uning jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rniga salbiy ta'sir ko'rsatgan edi. SHO'rolar davrida o'zbek millati nomi faqat sobiq SSSR hujjatlarida qayd etilsa-da, u xalqaro hayotda mustaqil sub'ekt sifatida tan olinmay kelingan edi.

Mustaqillik uchun kurash, garchand chorizmning mustamlakachilik siyosati davridan boshlangan bo'lsa ham, u sho'rolar tuzumi davrida yanada keskin tus oldi. Ammo o'zbek xalqining ko'ega ko'ringan millatparvar farzandlarining izchillik bilan bosqichma-bosqich kirib yuborilishi milliy o'zlikni anglash jarayonining ommaviy ravishda yo'qsalish imkonini bermagan edi. 80-yillarga kelib sobiq SSSR iqtisodiyotidagi inqiroz. uning siyosatda xalqaro jandarmga aylanishga intilishi, ma'naviyat va ma'rifatdagi qashshoqlashuvi bu tuzumning millatlarni taraqqiy

¹ Sadlulla Otamurodov. Sarvar Otamurodov.O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish. Toshkent; Yangi asr avlod. 2003, - b.28.

ettirishga noqobilligini yana bir bor tasdiqlagan edi. Bu jarayon sobiq SSSR tarkibiga kirgan millatlarning mustaqillikka intilishini, o’zlikni anglashning o’sib borishini tezlashtirib yubordi. 80-yillarning oxiri 90-yillarning boshlarida millatlararo munosabatlarda turli nizolar hamda fojialarning kelib chiqishi milliy o’zlikni anglashning yashirin qudrati yuzaga qalqib chiqqanligini bildirar edi. Bu kudratli jarayon oqibatida “metindek” mustahkam hisoblangan qudratli SSSR davlati va butunjahon sotsializm tizimi halokatta uchradi. Sobiq xalqlar turmasi o’rnida mustaqil davlatlar vujudga kelib, millatlarning o’zligini anglashga intilishi kuchayib ketli. Ana shu murakkab kurash jarayonini o’z boshidan kechirgan o’zbek xalqi mustaqillikni qo’lga kiritganidan so’ng, o’zining mustaqil millat maqomini tiklash uchun dadil harakat qildi. Xususan, mustaqillik yillari bosib o’tilgan tarixan qisqa davr mobaynida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda katta ishlarni amalga oshirdi¹. Bu yillarda millatimizning o’zligini anglashi jadal rivojlanib bordi. Bu milliy o’zlikni anglash jarayonining yo’qsalib borish xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo’ldi:

Birinchidan, sobiq tuzum sharoitida ma`naviy-ma’rifiy sohalarda bu tuzumni madh etuvchi ishlar zo’ravonlik va makkorlik bilan qaysi shaqlida va usulda amalga oshirilmasin, millatimizning dunyoqarashini butunlay o’egartira olmadi. Xalqimiz har qanday sharoitda ham o’zligiga qaytish kayfiyati va ruhiyati bilan yashab keldi. Chunki sho’rolar tuzumi bermoqchi bo’lgan ma’naviyat va ma’rifat, uni shaqlantirish milliy madaniyatlar rivojlanishining obyektiv qonunlariga asoslanmay, balki subyektiv kuchning, ya’ni kommunistik mafkuraning zo’ravonligiga tayangan edi. Bundan tashqari, sobiq tuzum bermoqchi bo’lgan ma’naviyat va ma’rifat milliy madamiyatlarning o’zaro ta’siri va shu asosda boyishga emas, balki rus millati madaniyati va ma’rifatini boshqa yirik millatga singdirishga qaratilgan edi.

Sobiq sovet jamiyati madaniyatining modeli “nazariy” jihatdan “asoslangan” bo’lsa, ammo u amalda mavhum tushuncha edi (mazmunan sotsialistik, shaqlan-

¹ Ma’naviy salohiyat. Oliy ta’lim muassasalari professor – o’qituvchilarning uzlusiz malakasini oshirish bo’yicha nazariy va amaliy mashg’otlarning matni.T.:2009. – B. 48.

milliy). Mohiyati jjihatdan esa o'zbek xalqi ajdodlari tomonidan asrlar davomida yaratagan na bugungi avdodlarga meros bo'lib o'tgan ma'naviyat va ma'rifatga mutlaqo zid edi. Mustaqillikka erishishimiz bilan bunday holatlarga Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida barham berildi.

Ikkinchidan, mustaqillikning dastlabki bosqichlarida milliy o'zlikni anglashning xarakterli xususiyati shunda bo'ldiki, milliy qadriyatlardan ko'ra diniy qadriyatlarni ko'tarish ustuvorlikni tashkil qildi. Buning obyektiv sababi bor edi. Xususan, o'zbek xalqi ma'naviyati va ma'rifati rivojlanishining sho'rolar tuzumi o'rnatilgunicha bo'lган davri islom ma'naviyati va ma'rifati bilan chambarchas bog'langan bo'lib, u millatimiz ongi va ruhiyatnning muhim qismini tashkil qilib kelgan. Xuddi shuning uchun ham bolsheviklar islomga qarshi kurash yo'li bilan millatni ham yo'q qilish mumkin, deb hisoblaganlar va shu siyosatni izchillik bilan amalga oshirishga intilganlar. Ularning bu harakatlarn bejiz emas edi. Chunki Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Tarixdan ma'lumki bir xalqni o'ziga tobe qilishni istagan kuchlar, avvalo uni o'zligidan, tarixidan, madaniyatidan judo qilishga intiladi"¹. Mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin tarixiy xotirani va diniy qadriyatlarni tiklash milliy tiklanishning, o'zlikni anglashning muhim omili sifatida ustuvor bo'lib keldi. U milliy birlikni mustahkamlashda va milliy taraqqiyotni yangi bosqichga ko'tarishda amaliy ahamiyat kasb etdi.

Mustaqillikni mustahkamlash yillarda milliy o'zligimizni anglashning o'sishi ikki yo'nalishda:

a) milliy va diniy qadriyatlarimizning uyg'unligi milliy o'zligimizni anglashning asosiy manbai sifatida yetakchi ahamiyatga ega bo'ldi. Anashu qadriyatlarning o'zlashtirilishi millatdoshlarimizning qaddini ko'tardi, o'zini ular ichida munosib o'ringa ega ekanligini bilib olishiga keng imkoniyatlar yaratdi. Buyuk tarix, ulkan ma`naviy meros va ajdodlardan meros bo'lib qolayotgan diniy qadriyatlар mustaqillik sharofati bilan millatimiega o'zining "men"ligini namoyon

¹ Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e`tiqodi va buyuk keljakka ishonchdir. Toshkent. "O'zbekiston", 2000 y.-b.11.

etishi uchun zamin bo'ldi. Ana shu zaminlarimiz chuqur va boy bo'lganligi sababli ham millatimiz o'zining ma`naviy "qiyofasini" tiklashi va o'zligini anglashi davlatimizning bu jarayonning rivojlanishiga bergen e'tibori natijasida barqaror kechdi;

b) har qanday millatning o'zligini anglashi, faqat doirasi bilak cheklanib qolishi unga taraqqiyot uchun imkon bermaydi. Shu ma'noda milliy o'zlikni anglashning ikkinchi omili, har bir millatning dunyo xalqlari erishgan yutuqlar va tajribalarini qaysi darajada samarali foylalana bilish bilan bog'lik bo'ladi.

Mamlakatimizning mustaqilligi, millatimizning o'zligini anglashida ana shu imkoniyatdan foydalanishga ham katta e'tibor berildi. Mustaqillik yillarida mamlakatimiz yoshlari o'zlarining yuksak intellektual salohiyatlari bilan dunyo xalqlarining erishgan yutuqlari va ilg'or tajribalaridan foydalangan holda O'zbekistonni rivojlantirishda faoliyat ko'rsata boshladilar. Yoshlarimiz jahoning rivojlangan mamlakatlarida fan, texnika va texnologiya sohasida qo'lga kiritilgan eng so'nggi yutuqlardan samarali tarzda foydalanish darajasida o'zlarining intellektual salohiyatini rivojlantirishga harakat qildilar va ular bu o'ta murakkab vazifani bajarishga erishdilar. Bu yo'nalishda milliy o'zlikni anglashning ma'nosi shundaki, agar xorijdan fan, texnika va texnologiya yutuqlarini mamlakatimiega keltirish bilan ulardan foydalanishga salohiyati yetadigan fidoyi kadrlar, mutaxassislar va intellektuallar bo'lmasa, ularni xorijdan keltirish zarurati yuzaga kelgan bo'lar edi. Bu yana mamlakatning xorijiy mamlakatlarni intellektual jihatdan qaram bo'lib qolishiga olib kelishi mumkin edi¹.

Mamlakatimiz yoshlari ana shunday salbiy holat yuzaga kelishining oldini olishda millatning vakillari sifatida o'zlarini namoyish etdilar. Bugungi kunda mamlakatimiz yoshlari nafaqat jahonda qo'lga kiritilgan fan, texnika va texnolgiyalardan samarali foydalanishda jahondagi yuksak darajada rivojlangan mamlakatlarning mutaxassislari darajasida faoliyat ko'rsatmoqdalar, shuning bilan birga o'z qobiliyatlari va intellektual salohiyatlari bilan O'zbekistonning dovrug'ini

¹ Ma'naviy salohiyat. Oliy ta'lim muassasalari professor – o'qituvchilarning uzluksiz malakasini oshirish bo'yicha nazariy va amaliy mashg'otlinarning matni.T.:2009. – B. 50.

jahonga yoyishga erishmoqdalar. Bu milliy o'zlikni anglash rivojlanishning mustaqil taraqqiyotimiz davridagi ko'rsatkichlaridan birini tashkil qiladi. Zero, o'zbek millatning dovrug'i, uning o'zligini namoyish etishi, tenglar ichida teng va taraqqiyotda oldingi saflarda borishga qodir bo'lgan milliy o'zligini anglagan vakillarining fidoyilik natijasida keng yoyilib bormoqda. Bugungi ana shu jarayonda yoshlarimizning faol ishtirok etishlari amaliy ahamiyatga egadir. Birinchi Prezidentimiz aytganidek, "toki yoshlarimiz milliy o'zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan baravar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin"¹.

Demak, milliy o'zlikni anglash, nafaqat o'z zaminlari asosida rivojlanish, o'z millatining manfaatlarini himoya qilish ruhiyatining mustahkamligi, shuning bilan birga millatning jahondagi taraqqiy qilgan mamlakatlar darajasida rivojlanish yo'lida fidoyilik ko'rsatishga intilishga harakat qiluvchi vakillarining salmog'inining oshib borishida ham o'z ifodasini topadi. O'zlikni anglashning ko'rsatkichlaridan biri bu taraqqiyotning hozirgi murakkab sharoitida o'z millatining ana shu taraqqiyot tizimida "men"ligini namoyish qila bilishi bilan belgilanadi. Millatimiz ana shu yo'nalishda ham o'zining munosib o'rniga ega bo'layotganligi milliy o'zligimizni anglashning rivojlanayotganligini ko'rsatib turibdi. Bu o'z navbatida ma'naviyatimiz riyojiga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazib bormoqda.

Bugun dunyoda mavjud bo'lgan mamlakatlarning deyarli barchasida o'zining "titul" millati bilan birga, boshqa turli millatlar yashamoqdalar. Bir mamlakat miqyosida turli millatlarning yashashi bir qator murakkab vaziyatlarni keltirib chiqardi. Chunki turli millatlarning mavjudligi ular manfaatlarnning turlitumanlilagini bildiradi. Turli obyektiv sabablar va subyektiv omillarning mavjudligi ayrim olingan ko'p millatlar yashayotgan mamlakatlarda har doim ham barcha millatlarning manfaatlarini to'laligicha amalga oshirish imkonini bermaydi. Ana shunday vaziyat mamlakatlarda mamlakatlararo ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Bu

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent. Ma'naviyat. 2008.-b.119.

o'z navbatida mamlakatning barqaror taraqqiyotiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Bu salbiy jarayonning oldini olish har bir ko'p millatlar yashaydigan mamlakatlarda taraqqiyot uchun amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Har bir ma'naviyati yuksak mamlakat o'z hududida yashayotgan turli millatlarning barqaror rivojlanishi va ularning manfaatlarini uyg'unlashtirishni o'z siyosatining ustuvor vazifasi sifatida qaraydi va faoliyat olib boradi. Bunday faoliyat millatlararo totuvlikni ta'minlaydi va mamlakatning barqaror rivojlanishi ga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Millatlararo totuvlik deganda ko'p millatlar yashayotgan mamlakat hududidagi turli millat va elat vakillarining hamjihatlik va o'zaro hamkorlikda yashashlari, ularning ongi va qalbida yagona Vatan tuygularining mustahkamligi, uning istiqboli yo'lida sidqidildan mehnat qilish va fidoyilik ko'rsatish ruhiyatining amal qilishini tushunish mumkin.

Millatlararo totuvlikni ta'minlashning asosiy omili mamlakat hududida yashayotgan barcha millat va elat vakillarining ehtiyojlarini hisobga olish, manfaatlarini uyg'unlashtirish va yagona maqsad sari Vatanni taraqqiy qildirishga yo'naltrish hisoblanadi. Shuni bugun mammuniyat bilan ta'kidlash lozimki, milliy o'zlikni anglash jadal sur'atlar bilan o'sib ketishiga qaramasdan, O'zbekistshda millatlararo va fuqarolararo nizolarnimg bo'limganligi, ularning oldi olinganligi o'zbek millati uchun vazminlik, bag'rikenglik va boshqa millat vakillariga nisbatan hurmat kabilar xos bo'lgan xususiyatlar ekanligi bilan bog'lik. Aslida, 1990- yillarda sobiq SSSR tizimida bo'lgan ittifoqdosh respublikalarda bo'lgani kabi parokandalik taraqqiyot yo'lining noaniqligi O'zbekistonda ham bo'lgan edi. Ammo o'zbek xalqining o'ziga xos teran aql-zakovati, bosiqlik, vazminlik xususiyatlari, uning Birinchi rahbari Islom Karimovning vaziyatni to'g'ri anglab, shunga mos ravishda siyosat olib borishi parokandalik yo'liga to'siq qo'ydi¹.

O'zbeklar o'z atrofida yashayotgan boshqa millat va elat vakillariga nisbatan do'stlik, birodarlik, hamkorlik, o'zbek xalqiga xos mehr-oqibat tuyg'ularini saqlab

¹ Ma'naviy salohiyat. Oliy ta'lim muassasalari professor – o'qituvchilarning uzluksiz malakasini oshirish bo'yicha nazariy va amaliy mashg'otlinarning matni.T.:2009. – B. 52.

qola olganligi milliy o'zlikni anglashdagi yana bir xususiyat hisoblanadi. Vaholanki, mustaqillikka erishgan ayrim respublikalarda mustaqillik sharofati oldida dovdirab, o'z atroflarida yashayotgan yaqindagina qardoshmiz deb yurgan millat vakillariga hurmatsizlik bilan qarash yuz bergenligi sir emas. O'zbekistonda bunday hol yuz bermaganligi xalqimizning yuksak ma'naviyatini ko'rsatadi. "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" konsepsiyasida ta'kidlanganidek, "millatlararo hamjihatlikka rahna soluvchi illat bu - tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir.

Bunday zararli g'oyalari ta'siriga tushgan jamiyat halokatta yuz tutishi muqarrar. XX asrda Yevropa xalqlarini asoratga solgan va ayrim davlatlarning tanazzuliga sabab bo'lgan fashizm g'oyasi bunga yaqqol misol bo'ladi. O'zbekistan hududida qadim-qadimdan ko'plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib keladi. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'limgani xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi"¹.

Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov aytganidek: "Bizning keyingi yillarda erishgan eng katta yutug'imiz - bu umumiy xonadonimizda qaror topgan tinchlik va barqarorlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikdir"².

Mustaqil O'zbekistonning yuqsalishi, o'zbek millati gullab - yashnashining tarafdori bo'lgan har bir o'zbekistonlik fuqaro millatlararo totuvlik, do'stlik qoidalariga sodiq bo'lishi kerak. Chunki mustaqil davlatimizning kelajagi birinchi navbatda, o'zbek xalqining o'zligini qanchalik anglab yetganligiga hamda mamlakatimiz hududida o'zbeklar va boshqa millat, xalq vakillari bilan yonma-yon istiqomat qilib turgan har bir kishining millati, dini, tili va e'tiqodlaridan qat'iy nazar, bir-birining ko'nglini ola bilishiga, ular o'rtasida do'stona munosabatlarning o'rnatilishiga bog'lik. Hozir O'zbekistonda 136 millat va elat vakillari tinch-farovon hayot kechirmoqda. Ular o'zbeklar bilan bir qatorda bunyodkorlik ishlari bilan shug'ullanmoqdalar. Mamlakatimizda har bir millatning tili, madaniyati, urf-

¹ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.T. 2001y.-b.60

² Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.T. "O'zbekiston". 1999y.-b.9.

odatlari, rasm-rusumlarini tiklash, tarixiy vatan bilan aloqa va munosabatlarni bog'lashga, milliy his-tuyg'ularning namoyon bo'lishiga keng yo'l olib berilgan. Bu esa mamlakatimiz barqaror rivojlanishining kafolatidir.

Xullas, milliy o'zlikni anglashni o'stirish yo'lida mustaqillik mustahkamlashga fidoyi bo'la oladigan jonkuyar – Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov so'zi bilan aytganda “Biz fidoyi vatanparvarlarni tarbiyalashimiz”, “Elim deb yurtim deb yashovchi, shu yo'lda hatto jonini ham ayamaydigan”, “o'zidan so'ng ozod va obod Vatan qoldiradigan” farzandlarni tarbiyalashimiz zamon va mustaqillik talabi. Bunga yurtimizda yashayotgan har bir kishi millatidan qat`iy nazar mas'ul bo'lmosh'i lozim. Yoshlarimiz tafakkurida o'zligini unutmaslik, otabobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatlarini qaror toptirish, ularning, men o'zbek farzandiman, deb g'urur va iftixon bilan ishlashiga erishish ma`naviy tarbiya ishimizning markazida turmogi lozim¹.

Agar biz bugungi milliy o'zligimizni anglash va millatlararo totuvlikni ta'minlash borasidagi vazifalarini talab darajasida amalga oshira olsak:

Birinchidan, mustaqilligimizni abadiylashtirishga ozod va obod Vatan, farovon hayotni qurishga, mamlakatnmizning jahondagi nufuzini mustahkamlashga, o'zimizning jahon sivilizatsiyasidagiadolatli va munosib o'rnimizni qayta tiklashga erishamiz.

Ikkinchidan, milliy o'zligimizni anglashimiz, avlod ajdodlarimizdan qoldirilgan boy merosimizni o'zlashtirishimizga olib keladi. Bu faqat mustaqilligimizni mustahkamlash vazifalari darjasasi bilan chegaralanib qolmasdan, balki millatimiz avlodining vorisligini ta'minlashga imkon beradi. Demakki, bu vazifalarini amalga oshirib biz keyingi avlodlarimiz oldidagi vazifamizni ham ado etgan bo'lamiz.

Uchinchidan, milliy o'zligimizning muhim qirralaridan biri o'zbek millatti bilan yonma-yon yashayotgan, shu aziz Vatanning farzandlari bo'lган barcha millat va elat vakillari o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash, ularga hurmat bajo keltirish,

¹ Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. Toshkent. “O'zbekiston”, 2000 y.-b.11.

ularning milliy ma’naviyatlarni rivojlanishiga yordamlashish bo’lib ana shu amaliy faoliyatimizni mamlakatimizda millatlararo totuvlikni mustahkamlash tashkil etadi. Millatlararo totuvlikka amal qilishi har bir mamlakatdagi titul millatning yuksak ma’naviyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Chunki, titul millatning ma’naviyati yuksak bo’lsagina, u o’z atrofidagi boshqa millat va elat vakillarini o’z atrofida uyg’unlashtiradi hamda ularning erkin taraqqiy qilishi uchun g’amxo’rlik qilishga qodir bo’ladi.

Millatlararo totuvlikda yashash xalqimizga ajdodlarimizdan qolgan ulug’ meros hisoblanadi. Bugungi avlodimiz ana shu merosga sodiq bo’lgan holda mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elat vakillarida yagona Vatan tuyg’usini mustahkamlashi yo’lidagi fidoyiligi ma’naviyatimizni boyitib borishimizning muhim yo’nalishi sifatida namoyon bo’lmoqda.

Demokratiya – “Xalq hokimiyyati” demakdir. Demokratiya kishilik tarixida insonning ongli hayoti boshlangan davrdan boshlab, uning erk- irodasini, xohish-istagini belgilaydigan mezon bo’lib kelmoqda. Insoniyat jamiyat taraqqiyotining har bir yangi davrida demokratiya ham yangidan-yangi mazmun, mohiyat va shakl kasb eta borgan.

Demokratiya jamiyat taraqqiyoti, uning siyosiy, huquqiy va ma’naviy jihatlarini, aholi umumiy dunyoqarashini o’zida aks ettiradi.

Demokratiya tushunchasi negizida aholining ozodlik, hurriyatga erishishi, erkin yashashi, haqiqat va adolat singari mazmun yotadi. Buyuk bobomiz Amir Temurning “Kuch-adolatda” degan so’zi negizida huquqiy demokratik davlatning ham, fuqarolik jamiyatining ham ayrim belgilari, g’oyat insonparvarlik mazmuni va insonning yashash huquqi, uning barcha erkinliklari ham mujassamlashgan. Yuqorida aytilgan fikrlar hozirgi zamon demokratik harakatlar ilg’or tajribasining o’q ildizini, bosh yo’nalishini tashkil etadi.

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, qadimiy Sharq davlatchiligidagi inson erki, haq-huquqlari ko’p jihatdan himoya qilingan, hamda o’z davrining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, inson ozodligi va xatti-harakatlari erkinligi ta’min

etilgan edi. Bular ayni demokratik jamiyatining muhim va asosiy belgilaridan hisoblanadi

Endi biz butunlay yangi tarixiy sharoitda yashayapmiz. Bunday sharoitda demokratiyani shunchaki “ozodlik”, “erkinlik”, “xalq hokimiyati” sifatida sodda ravishda tushunmasligimiz kerak, Demokratiyaning har bir elementi yangicha chuqur mazmun bilan boyib borayapti. Chunonchi, demokratiyaning madaniyati, ma’rifati odamlar o’rtasidagi munosabatlardan tortib dunyoviy muammolarni hal etishgacha bo’lgan nizo, murosa va yakdillik, uning iqtisod, siyosat va fikrlar xilmalligi sharoitidagi vazifalarini ham qamrab olmoqda Odamlar ongi va tafakkuri kengaygani sari, ularning demokratiyaga munosabatlari ham o’zgarmoqda.

Totalitar tuzumdan erkin fuqarolik tuzumiga o’tilayotgan bir sharoitda demokratiyani anglash, uning mohiyatini tushunish va mas’uliyatini zimmaga olish ancha qiyin ish. Eng avvalo, odam yangicha sharoit mazmun-mohiyatini anglashi, unga o’z-o’zini tayyorlab borishi, erkin yashash va erkin fikrlash ko’nikmasini hosil qilishi zarur. Har bir fuqaro ma’naviy-ruhiy jihatdan unga tayyor bo’lishi lozim. Qotib qolgan tushunchalar qobig’ini sindirish, fikrsizlik va tanballik, boqimandalik ruhiyatidan xalos bo’lish oson emas. Biz hozir ana shunday murakkab jarayonni boshdan kechirmoqdamiz. Demokratiya bir yo’la qurilgan bino yoki doimiy bir xil tarzda o’zgarmay suradigan buyum emas, balki u doimiy harakatdagi jonli hodisadir. Ayni paytda u jamiyat taraqiyoti va mavjud siyosiy rejim ta’sirida o’zini-o’zi to’ldirib, boyitib, yangi tarixiy sharoitlarda yangicha mazmun kasb etib boruvchi tarixiy voqelikdir. Qisqasi, demokratiya tajribaga asoslangan va doimo mazmunan boyib, shaklan takomillashib, mohiyatan chuqurlashib boradigan doimiy va uzlusiz harakatdagi faoliyatdir¹.

O’zbekiston mustaqillikka erishganidan so’ng huquqiy demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini vujudga keltirishni oliy maqsad qilib qo’ydi. Unga erishishning yagona yo’li esa demokratiyani chuqurlashitirishdir.

¹ Ma’naviy salohiyat. Oliy ta’lim muassasalari professor – o’qituvchilarning uzlusiz malakasini oshirish bo’yicha nazariy va amaliy mashg’otlinarning matni.T.:2009. – B. 54.

Shuni aytish kerakki, demokratik jamiyatni barpo etishning tamoyillari, dunyo tan olgan, e'tirof etgan, barcha uchun umumiy bo'lgan o'z yo'riqlari mavjud. Bularga quyidagilar kiradi: bevosita fuqaroning o'z xohish-irodasini erkin ifodalash huquqiga egaligi, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi, barcha fuqarolarning millati, elati, ijtimoiy kelib chiqishi va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar teng huquqliligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi, saylash va saylanish huquqi va boshqalar. Bular deyarli barcha mamlakatlar, shu jumlalan O'zbekistan Respublikasining Konstitutsiyasida ham qat'iy bedgilab qo'yilgan demokratiyaning tartib qoidalaridir.

Demokratiyani hayotga joriy qilishda mamlakat xalqining milliy ehtiyojlari, turmush tarzi, axloqiy mezonlaridan kelib chiqib yondashish kerak bo'ladi. Ana shu nuqtai nazardan kelib chiqadigan bo'lsak, hamma xalqlar uchun demokratiyani birday joriy qilishning bir xil qolipi bo'lishi mumkin emas. Mana shundan demokratiyaning g'arb va sharqonaligi haqidagi qarashlar yuzaga kelgan. Bu haqda Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlari bor. Buni aslo nazardan qochirib bo'lmaydi, ya'ni Sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda asta-sekin taraqqiy topadi. Bu sohada inqilobiy o'zgarishlar yasashga urinishlar g'oyat noxush, hatto fojiali natijalarga olib keladi. Inqilobni g'arb olimlari ham "Ijtimoiy taraqqiyotning ibridoiy va yovvoyi shakli" deb aytgan. Tabiiyki, bunday yo'l bizga aslo to'g'ri kelmaydi"¹ - deganida demokratiyani joriy etishning bosqichma-boskich, asta-sekinlik bilan, odamlar ongi va qalbi orqali amalga oshirish kabi o'zbekona tamoyillari mavjudligini ko'rsatadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlarda Turkiya, Olmoniya, Fransiya, Angliya kabi mamlakatlar bizga o'z taraqqiyot dasturlari va modellarini tavsiya etdilar. To'g'ri, bu mamlakatlarda demokratiyaning ibratli va o'rghanishga arzirli tajribalari mavjud.

¹ Karimov I.A O'zbekistonning siyosiy – ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T. "O'zbekiston". 1995y.-b.10-11.

Biroq Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov bu takliflarga o'zining aniq munosabatini bildirdi. Bu masalaga har bir millatning turmush tarzi, ruhiyatidan kelib chiqib yondoshish zarurligini aytdi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, demokratik jarayonlarni chetdan nusxa olib ko'r-ko'rona ko'chirish aslo samara bermaydi. Bunday yo'l chalkash va xatarli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Erkinlikka ortiqcha yo'l berish davlat va boshqaruv apparatining bo'shashib ketishi, hokimiyat jilovining o'z xohishiga qo'yilishi ming-minglab xonadonlar boshiga og'ir kulfatlar keltirishi bilan yakunlanishini ko'rsatuvchi misollar ko'p.

G'arb demokratiyasida ochiqdan-ochiq munosabat, keskin inqilobiy harakat ustunlik qiladi. Sharq demokratiyasida esa aksincha andishalilik, bosiqlik; G'arbda ota-onasini sensirash, Sharqda o'zidan kattalarga, oqsoqolga hurmat bilan qarash, bosiqlik bilan ish tutish an'analari mavjud.

Ba'zi odamlar O'zbekistonda huquqiy demokratik jamiyatni shakllantirish faqat qog'ozda, shunchaki og'zaki gap, amalda fuqarolarning barcha imkoniyatlari cheklanayotir, deb da'vo qilmoqdalar. Bu gapni aytganlar nuqlul O'zbekistonni Amerika, Olmoniya, Fransiya, Angliya va boshqa bir qator mamlakatlardagi ahvol bilan solishtirishga urinadilar. Bu o'rinda bir narsaga e'tibor berishimiz talab etiladi. Yuqorida qayd etilgan mamlakatlarda inson huquqlari, davlat va fuqaro o'rtasidagi munosabatlar borasida to'plangan tajribalar amalga oshirilgan ishlar ikki yuz yil va undan ham ortiq yillar mobaynida, og'ir kurash va sinov yo'llaridan o'tish orqali vujudga kelgan. Mustaqil O'zbekistonda tarixan qisqa vaqt mobaynida, kechagi kundan bugungi kunga o'tgan kunning o'zida G'arb davlatlaridagidek keng miqyosli tadbirni amalga oshirishni talab qilish aqlga sig'maydigan holat. Odamlar dunyoqarashi, fikrlash tarzi va onglilik darajasini bir kun yo bir yilda o'zgartirish sira mumkin emas.

2.2. Milliy o’zlikni anglash rivojlanishi zaruriyatining kuchayishi

Milliy o’zlikni anglash murakkab jarayoi hisoblanadi. U millat mustaqil “men”ligining asosiy omillaridai biri bo’lganligi uchun uni o’rganish, takomillashuv jarayonini tahlil silib borishga ehtiyoj o’sib boraveradi. Uning millatning asosiy belgilaridan biri haqidagi konseptual g’oyalarimizni avval e’lon qilgan kitobimizda ilgari surishga harakat qilgan edik.

Endi esa globallashuvning avj olishi sharoitida milliy o’zlikni anglashni rivojlantirish zarurnyati kuchayib borishining sabablari, unga ta’sir o’tkazadigan ijobiy va salbiy omillar haqida o’z fikr-mulohazalarimizni bildirishga harakat qilamiz.

Bugun shu narsa ayon bo’lmoqdaki, tashqaridan qaraganda, global lashuv mamlakatlar iqtisodiyotining integratsiyalashuvini tezlashtirmoqda, unda mavjud bo’lgan muammolarni hal qilnshga o’zining ta’sirini o’tkazmoqda va shu yo’l bilan yuksak taraqqiy qilgan mamlakatlarning, kam taraqqiy qilgan va endi mustaqil taraqqiyot yo’liga kirgan mamlakatlarga ko’rsatayotgan “yordamlari” oshib bormoqda. Agar ana shu jarayonga chuqurroq qaraydigan bo’lsak, ikkita salbiy oqibatlarning yuzaga kelayotganligini ko’rishimiz mumkin bo’ladi¹.

Ular yuksak taraqqiy qilgan mamlakatlarning kam taraqqiy qilgan va endi mustaqil taraqqiyot yo’liga kirib borayotgan mamlakatlarga o’z texnika, texnologiya va fan yutug’lari natijalarini olib kirish yo’li bilan resurslarini egallab, katta foyda olmoqda. Qolaversa, yuksak taraqqiy qilgan mamlakatlar kam taraqqiy qilgan mamlakatlar iqtisodiyotiga o’z investitsiyalarini jalb qilish orqali nafaqat foyda olmoqda, shuningdek, ularning iqtisodiyotini o’zlariga bog’lab qo’ymoqdalar. Xuddi ana shu ikki omil vositasida ular milliy ma’naviyatlarini ichidan va tashqarisidan yemirilishini osongiana amalga oshirmoqdalar. Ana shunday sharoitda ularning o’tkazayotgan nayranglaridan ogoh bo’lish va himoyalanishning katta omillaridan biri milliy o’zlikni anglashni rivojlantirish hisoblanadi.

¹ Otamurodov S. Globallashuv va millat. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2008,-b.112.

Bugun milliy o'zlikni anglashni rivojlantirishni millatning qaramlikdan qutilish uchun olib borilgan kurashga kuch-quvvat va ilhom bag'ishlagan davrigacha qaraganda ham yuqori, kerak bo'lsa yangi bosqichga ko'targan holda rivojlantirishga ehtiyoj oshib bormoqda. Chunki millatnmizning qaramlik holatida zo'ravonlarning olib borgan siyosati natijalarini har bir millatdoshlarimiz, har qadamda sezar edi va unga qarshi kurash olib borish zarurligini anglab yetgan edi. Ammo globallashuv jarayoni o'ta murakkab. Uning iqtisodiy muammolarni hal qilishga o'tkazayotgan ijobiya ta'siriga mahliyo bo'lib, uning millatimiz milliy-ma'naviy qashshoqlashuviga yetaklayotganligini anglanmay qolish xavfi nihoyatda kattadir. Bu jarayonni qanday bo'lsa shundayligicha anglashn uning turli sohalarga o'tkazayotgan ta'sirini tushunib olish, millat istiqboli nimalarga bog'liq ekanligini bilib olish uchun milliy o'zlikni anglashni rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish zarurligi kuchayib bormoqda.

Milliy o'zlikni anglash shunday omilki, uni yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarish yo'li bilangina millatni har qanday zararli ta'sirlardan himoya qilish mumkin. Chunki u millatdagi manfaat, iftixor, g'urur, sha'n, or-nomus, e'tiqod va mas'uliyat kabi qadriyatlarni abadiylashtiruvchi yuksak darajadagi ma'naviy qadriyat hisoblanadi¹.

Milliy o'zlikni anglash har bir tarixiy taraqqiyot bosqichida rivojlanib va takomillashib boradi. Ammo bu jarayon hech qachon stixiyali ravishda kechmaydi, balki tarixiy taraqqiyot bosqichlarining millat oldiga qo'yadigan, ularning millat ruhiyati, ma'naviyatiga ko'rsatadigan ta'sirlariga qarab rivojlanadi. U o'zining ornomusi, qadriyati, sha'ni, g'ururi toptalganligini sezsagina yoki o'z taraqqiyoti davomida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish zaruriyatini anglasagina milliy o'zlikni anglash rivojlanishi tezlashuvi, kerak bo'lsa unda "portlash" sodir bo'ladi. Aks holatda uning rivojlanish jarayoni evolyutsion tarzda sekin kechishi davom etaveradi. Ana shu fikrimizdan kelib chiqadigan bo'lsak, qaramlikdan qutulish uchun kurash davri milliy o'zlikni anglash rivojlanishmning sokinlik davri emas edi.

¹ Abdurahmonov M. Ma'naviy salohiyat. –T.: “Universitet”, 2009, -b.46.

Shuning bilan bir vaqtda mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin u yangi sharoitda boy berilgan imkoniyatlarni toptalgan milliy urf-odat, anana va qadriyatla rimizning qayta tiklanishida katta omilga aylandi.

Bugun o'zbek millati yangi sharoitda va yangi zamonda yashamoqda. U mustaqillik yillarida qanchalik ulkan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritgan bo'lmasin, globallashuvning kuchli bosimi ostida yashashga majbur bo'lmoqda. Millny o'zlikni anglash millat abadiyligini ta'minlaydigan omillardan biri sifatida ana shu sabab va zaruriyatga mos ravishda takomillashib boradi. Bu jarayonda uning ilgari mavjud bo'lgan qirralari takomillashadi va yangilari vujudga keladi. Ammo ularning hammasi faqat millatning ehtiyoji va manfaatlari o'sib qondirishi doirasi bilan cheklanmasdan, shuning bilan birga har bir tarixiy bosqichda milliy hayotga nisbatan amaldagi hokimiyatning olib boradigan siyosati va millatlararo yuzaga keladigan munosabatlar bilan ham bog'liq bo'ladi¹.

Milliy taraqqiyotning nafaqat ayrim olingan ilgari qaram bo'lgan, bugungi kunda esa mustaqillika erishgan millatlar, shuning bilan birga butun jahon misolida, hatto taraqqiy etgan millatlar yoki qashshoqlilikning eng og'ir kunlarida o'z boshidan kechirayotgan millatlarning bugungi hayoti va intilishlarini tahlil qilish ko'rsatmoqdaki, ularni harakatga va jo'shchin hayot kechirishiga safarbar etuvchi kuch bu - har bir millatning o'zini anglash omili hisoblanadi. Bu xulosa quyidagilarga asoslanadi:

Birinchidan, milliy o'zlikni anglash jarayonidagi "portlash" holati yuzaga kelishida birinchidan, milliy o'zlikni anglash rivojida millatning umumiyligi tan olingan belgilari (iqtisodiy, hududiy, tilning umumiyligi va madaniyati, an'ana, odatlari xususiyatlari va boshqalar) milliy rivojlanishdagi taraqqiy etayotgan yo'naliishlarni to'liq ifodalay olmaydi. Ammo ilmiy maqolalarda hamon millatning rivojlanishida iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy omillar asosiy omillardir, albatta, uning yetakchiliginini inkor etib bo'lmaydi degan fikr qat'iy bo'lib kelayotganligi ko'zga tashlanmoqda. Boz ustiga bu omillarning o'zaro aloqasi hamda bir-birini taqozo

¹ Lafasov M., Nomozova K., G'ofurov Z. Mustaqillik va milliy tiklanish. –T.: "Yangi asr avlodii", 2007,-b.11.

etishi ularning dialektik birligida ko'rsatib chiqilayotgani yo'q. Ayrim hollarda esa milliy o'zlik anglashning o'sishi to'g'risidagi ijtimoiy hayotni baynalminallashtirishni rag'batlantiruvchi omil sifatida gapirilib, uning oqibatida yuzaga kelgan muammolar va ziddiyatlar e'tibordan chetda qolmoqda.

Milliy o'zini anglash o'z tabiatiga ko'ra emotsiyal hodisadir va uning haqiqiy qiyofasi millatning manfaatlarini, or-nomus, g'urur va qadriyatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi. Milliy rivojlanishda ehtiyojlarning real hayot bilan nomuvofiqligi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy sohalarda o'z-o'zidan unchalik sezilarli ko'zga tashlanmaydi, ular milliy o'zlikni aiglashda, uning moddiy kuchga aylanishida o'zining tuliq aksini topadi. Moddiy va ma'naviy qadriyatlar taqsimotidaadolatsizlik hukm surgan sharoitda milliy o'zlikni anglash qudratli moddiy kuchga aylanib, millatlararo munosabatlar sohasidagi ziddiyatlarni jonlantiruvchi omil bo'lib yuzaga chiqadi va umummiliy millatni harakatga keltiradi¹.

Milliy jarayonlar rivojlanishining hozirgi tarixiy bosqichi ko'rsatishicha, iqtisodiy va siyosiy omillar millat rivojlanishida muhim omil hisoblanadi, ammo milliy o'zlikni anglashni hisobga olmaslik iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy omillarning salohiyatini to'laqonli ko'rsatishga xalaqit beradi. Ya'ni uning aks ta'siri jarayoni o'zining ifodasini topa olmaydi.

Ikkinchidan, millat mavjud ekan milliy o'zlikni anglashning tendensiyasi barqarorlik xarakterini kasb etadi. Chunki millatning mustaqil subyekt ekanligini xuddi ana shu omil belgilab beradi. Bundan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy salohiyatning qoldiq sharoitlarida har bir millat o'zini saqlab qolishga harakat qilishi haqiqat ekanligi kelib chiqadi. "Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni

¹ Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: "Istiqlol", 2009,-b.31.

shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi”¹.

Milliy o'zini anglashning qaror topishi ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili hisoblanishi bilan birga u jamiyatning yangilanib borishiga va millat ehtiyojlarining kuchayib borishini ta'minlaydi. Ayni bir vaqtida u jamiyatdagi og'riq joylarni yuzaga chiqishga olib kelishida ham ustuvor omilga aylanishi mumkin. Ana shu xulosalarga asoslanib milliy o'zlikni anglashga quyidagicha tasnif berish mumkin: har bir millat (elat)ning o'zini real mavjud subyekt, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarii ifodalovchi, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligi, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiyligini tushunib yetishi milliy o'z-o'zini angash deyiladi².

Milliy o'z-o'zini angash millat shakllanishining ma'lum nisbiy yuqori bosqichi mezonidir. Millat o'ziga xos bo'lgan urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarni shakllantirishi va davlat atrofiga birlashishlari mumkin. Ammo uning milliy o'z-o'zini angash darajasiga ko'tarilishi murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki u millat vakillari aksariyat ko'pchilik qisminnng moddiy va ma'naviy boyliklariga ega ekanligi hissiyotining, tor darajada mavjud bo'lish manfaatlaridan umummillat manfaatlarini ustuvor qo'ya bilish darajasiga ko'tarila bilish bilan bog'liq.

Tadqiq etishimizcha, milliy o'z-o'zini angash milliy ongdan farq qiladi. Milliy ong har millatning yagona tili, urf-odatlari, an'analar, qadriyatlari va ma'naviyatining pastdan yuqoriga oddiydan murakkabga tomon rivojlanib borishining muhim mezoni hisoblanadi. O'z navbatida milliy ongning rivojlanib borishi har bir millatning o'z-o'zini anglashi darajasiga ko'taradi. Milliy ong millatni o'ziga xosligi asosida rivojlanib borishdagi ko'rsatkich bo'lsa, milliy o'z-o'zini angash manfaatini himoya qilishda harakatga keltiruvchi ichki ma'naviy-ruhiy salohiyatdir.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25-yilligiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutqi. // Xalq so'zi, 24 yanvar 2017 yil.

² Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati.- T.: “G'ufor G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi”, 2009,-b.409.

Bundan tashqari u faqat milliy manfaatlarni himoya qilish bilan cheklanmasdan, shuning bilan u turli muammolar yuzaga kelgan sharoitda ham millatni harakatga keltiradi va uni birlashtirib turadi. Xususan, millat taraqqiyoti jarayonida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda ham u millatni birlashtiradi va uni umummaqsadlar yo'lida harakatga keltiradi. U har qanday millat uchun yetakchi belgi hisoblanadi. U o'zining katta salohiyati bilan millat uchun zarur asosiy o'ziga xos belgilari tizimida yetakchi o'rinni egallaydi. U millat- ozligini anglashdan to'xtagan yoki undan mahrum bo'lgan har qanday millat o'limga mahkumdir.

Milliy o'zlikni anglash shu ma'noda ham millat abadiyligini ta'minlab turadi. Milliy o'zlikni anglashning vazifalariga turlicha qarashlar mavjud. Jumladan, milliy o'z-o'zini anglash vazifasi B.A.Shuvalov, K.N. Xabibulin kabi Rossiya olimlari tomonidan milliy rivojlanish yo'nalishida qarab chiqilgan, xolos. B.A.Shuvalov bu haqda shunday deb yozadi: "milliy o'z-o'zini anglash, milliy jamoa bilan bir qator o'xshashliklarga ega bo'lgan funksiyalarni ham o'zida mujassamlashtirgan. U gneseologik ahamiyatga ham egadir. Muayyan konkret-tarixiy sharoitlarda amalga oshiriladigan bu tipdagi o'z-o'zini anglashning baholovchi, undovchi, mr'yoriy, muvofiqlashtiruvchi va boshqa shunga o'xhash ijobiy funksiyalari katta rol o'ynaydi"¹. K.N.Xabibullin milliy o'z-o'zini anglashning quyidagi funksiyalarini ajratib ko'rsatadi: "Moslashuv, himoya funksiyalari, bilish, o'z-o'zini nazorat qilish va mas'uliyat funksiyalarining mavjudligini ko'rsatadi"².

Bizning fikrimizcha, yuqorida nomlari ko'rsatib o'tilgan mualliflar milliy o'z-o'zini anglash funksiyalarini to'g'ri ta'kidlaydilar. Ammo, ularning gnesologik mohiyati va harakat mexanizmlarini mustaqil tahlil qilmasdan faqat yo'l-yo'lakay o'rganganlar. Ya'ni ularni mustaqil mavzu sifatida emas, o'z mavzularining yordamchi elementlari qatorida saraganlar. Bundan tashqari bu masala

¹ Шувалов А.Б. Человек в системе национальных отношений. Автореферат. -М.: 1980, -с.7.

² Хабибуллин К.Н. Национальное самосознание и интернационалистическое повидение. -Л.: "Знание", 1998.- С.6.

respublikamiz olimlari e'tiboridan ham chetda qolib kelmoqda. Shu sababli milliy o'z-o'zini anglash funksiyasini konkretlashtirish uchun fikrlarning xilma-xilligi va ilmiy bahs munozaralarni izlab topish va ularni kengaytirishga katta ehtiyoj sezilmoqda.

Avvalo shuni ta'kidlab o'tish kerakki, milliy o'z-o'zini anglash millatning ma'naviy madaniyat tizimiga kiradi va uning milliy taraqqiyotga qo'shgan hissasi sof ma'naviy ruhiy hissa hisoblanadi. Biroq bu uning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishga qo'shadigan hissasini istisno qilmaydi. Modomiki iqtisodiy, ijtnmoiy-siyosiy va boshqa sohalar uchun negiz bo'lib hisoblanadi, shu bilan birga ular o'z holicha milliy omilsiz - milliy o'z-o'zini anglash omilisiz rivojiana olmaydi.

Milliy o'z-o'zini anglash omilining iqtisodiy rivojlanishiga va millatning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga qo'shadigan hissasi millatning o'z iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishiga intilishi raqamlar, jamiyat barqarorligi shaklida, ma'naviy o'ziga xos xususiyatlar va ruhiyat hamda his-hayajon tarzida namoyon bo'ladi¹.

Bunday shaklning ta'siri (rivojlanish yoki qoloqligining aks etishi va salbiy o'zgarishlar) millat iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotining sof milliyligini belgilab beradi. Shunday qilib, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayot tizimida milliy o'z-o'zini anglashning tutgan o'rni uning ma'naviy o'rni bilan uzviy bog'liqdir. Iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalardagi har qanday ijobiy yoki salbiy o'zgarishlar millatning unga bo'lgan mu nosabati shakllarida namoyon bo'ladi. Milliy o'zlikni anglashning millatlararo munosabatlarda turli mojarolarni keltirib chiqarish omiliga aylanishi aksariyat ko'pchilik hollarda ma'naviy ehtiyojlarni yetarli darajada qondirmaslik, millatning o'ziga xosligiga nisbatan hurmatsizlik kabi salbiy holatlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq bo'ladi. Bu tabiiy hol. Chunki ma'naviyat millatning or-nomusi, g'ururi, ichki ruhiy salohiyati, kerak bo'lsa uning butun borlig'idir. U o'zining millat sifatidagi qiyofasnni ma'naviyat orqaligina namoyon eta oladi. Shuning uchun ham

¹ Qo'chqorov V. Milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. –T.: “Akademiya”, 2007,-b.28.

ma’naviyatga nisbatan bo’ladigan har qanday salbiy munosabatlar millatga nisbatan bildirilgan tajovuz sifatida qabul qilinadi¹.

Ma’naviyatning milliy o’zlikni anglashning salbiy omil darajasiga ko’tarilishini xalqmizning “qornimga emas, qadrimga yig’layman”, degan dono maqoliga qiyoslash orqali tasavvur qilish mumkin. Ya’ni millat moddiy qashshoqlikka chidashi mumkin, ammo o’zi”ning ma’naviyati, or-nomusi, g’ururiga nisbatan bo’ladigan har qaday salbiy harakatlarga bardosh bera olmaydi va albatta, unga o’zining kuchi va qudrati bilan javob qaytaradi. Uning o’zligini himoya qilishi har qanday moddiy boylikdan ming chandon ustundir.

O’zlikni anglashning muhim mezonlaridan biri ham milliy xavfsizlikning mustahkam bo’lishini ta’minalashning real amal qilishi tashkil qiladi. Uning haqiqiy zaruriyat ekanlagini anglamagan millat hali chinakam, to’la ma’nodagi millat darajasiga yetib kela olmaydi. Zero, milliy xavfsizlikning mustahkam bo’lmasligi zaminida milliy o’zlikni anglashning zaif ekanlagini ko’rsatib turuvchi belgilardan biri hisoblanadi. Boz ustiga bugun millatga nisbatan tajovuzlarning ko’lami kengaymoqda, u turli xavf-xatarlar ta’sirida yashashga majbur bo’lmoqda.

Milliy xavfsizlikning ta’minlanganligi millat taraqqiyotiga, uning istiqboliga tashqaridan va ular yordamida ichkaridan yuzaga keladigan turli olimlar hamda kuchlarning g’oyalari va amaliy faoliyatiga qarshi tura oladigan umumxalq yakdillik omilining mavjudligida o’z ifodasini topadi. U o’z-o’zidan shakllanavermaydi, balki millatning o’zligini anglashining o’sib borishi bilan bog’liq bo’ladi. O’zligini anglagan millatnigina milliy xavfsizlikning millat taraqqiyoti va istiqboli uchun naqadar muhim omil ekanligini tushunib yetadi.

Bugun milliy xavfsizlikka qarshi qaratilgan turli oqimlar va siyosiy kuchlar faoliyat olib borar ekan, milliy o’zlikni anglashning milliy xavfsizlikni ta’minalash funksiyasining roli oshib boraveradi. Ma’lumki, mamlakatlar asrlar davomida shakllangan “titul” millatlar nomi bilan atalib kelinmoqda. Shu ma’noda ham mamlakatlarning jahon miqyosidagi nufuzi oshib borishi yoki pasayib ketishi ana

¹ Otamuratov S. Globallashuv va milliy ma’naviy xavfsizlik. –T.: “O’zbekiston”, 2013. –B.11.

shu “titul” nomi bilan bog’liq holda qaralishi odatga aylanib qolgan. Bu o’z-o’zidan tabiiyki, millatning ruhiyatida nofaol yoki faol ko’rinishda namoyon bo’lib kelgan. Shu ma’noda milliy o’zlikni anglash jarayonlarining darajalari mamlakat nufuzining darajalariga bog’liq bo’lib qolgan. Agar millat vakillarining aksariyat ko’pchilik qismida milliy o’zlikni anglashning rivojlanishi jarayonlari kuchayib borsa, ularning mamlakat taraqqiyoti va uning istiqboli uchun mas’ulligi ham oshib boradi. To’g’ri, bu jarayonni yuzaki qaraganda anglash murakkab ko’rinadi, chunki bozor munosabatlari shakllanishi jarayoni ko’pchilik hollarda shaxsiy manfaatlarga ustuvorlik bilan qarash zaruriyatini ham keltirib chiqaradi¹.

Lekin bir tomondan qaraganda millatning o’zi mavhum tushuncha, u millatni tashkil qiluvchi shaxslarning ongli ravshida uyushuvidan iborat bo’lganida moddiy kuch sifatida namoyon bo’ladi. Xuddi ana shu uyushuv millat manfaatlari va uning istiqboli uchun mas’ullikni ham yuzaga keltiradi. Ayniqsa, mamlakatning ichki hayotini buzib ko’rsatishga urinishlar yoxud uning nufuzini xalqaro miqyosda tushirishga qaratilgan harakatlar yuzaga keladigan bo’lsa, shaxslar uyushmasi uni himoya qiluvchi kuch sifatida o’zlarini namoyon etadilar. Bu milliy o’zlikni anglash rivojlanishining ko’rinishlartsdan biri hisoblanadi. Ikkinci tomondan esa, milliy birlik mustahkam bo’lishining o’zi ham o’zlikni anglash rivojining belgilaridan biridir. “Titul” millatning milliy birligi mamlakatda yashastgan boshqa millatlar vakil larini ham o’z atrofida jipslashtirish, hamkorlik va birlikda mamlakatning jahon miqyosidagi obro’-e’tibori va nufuzini mustahkam lash imkoniyatini kengaytiradi. Ya’ni “titul” millat vakillari milliy o’zlikni anglashining rivojlanib borishi mamlakatda yashovchi boshqa millatlar bilan birgalikda yagona kuch sifatida uning jahon miqyosidagi nufuzining oshib borishining omili sifatida namoyon bo’ladi.

Milliy o’zlikning rivojlanishi har doim ham mamlakat taraqqiyotining barcha bosqichlari uchun katta ahamiyatga ega bo’lib kelgan. Bundan keyin ham uning roli oshib boraveradi. Ayniqsa, globallashuvning avj olishi sharoitida uning

¹ Otamurodov S. Globallashuv va millat. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2008,-b.132.

roli ortib boradi. Chunki globallashuv jarayoni millatning o'ziga tortishi va uning oqibatida milliy o'ziga xoslikning "susayishi" holati yuzaga keladi va unga qarshi tura oladigan ichki imkoniyatlar yuzaga chiqadi. Xuddi ana shunday jarayon ham mamlakat nufuzining oshib borishiga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazib boradi.

Bugungi kunda milliy o'zlikni anglashning rivojlanish darajalarini O'zbekiston Respublikasi "Ijtimony fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi (O'zJFO'M) xodimlari tomonidan "O'zbekistonliklarning milliy o'zligi" (sotsiologik tadqqot) mavzusida o'tkazilgan so'rovlar natijalari ko'rsatib turibdi¹. Milliy o'zlik darajasini aniqlashda respondentlarning xalqning tarixi, madaniyati, ma'naviy merosiga munosabatini aniqlash nihoyatda muhim hisoblanadi. Bunday munosabat o'lkaning tarixi va madaniyati, O'zbekiston tarixini bilish darajasi, mamlakat tarixi va madaniyatini teranroq bilish istagi kabi pozitsiyalar yordamida aniqlanadi.

Bu borada berilgan savollarga javoblar quyidagicha taqsimlangan: so'rab chiqilganlarning 43,7 foizi o'lkaning tarixi va madaniyatini yetarli darajada bilaman deb javob bergen bo'lsa, 44,1 foizi bilaman, biroq yetarli darajada emas va 12,2 foizi mutlaqo bilmayman deb e'tirof etgan.

Farg'ona (49,4%) va Samarqand viloyatlaridagi (47,9%) respondentlar o'lka tarixini eng ko'p biluvchilar bo'lib chiqqan. Toshkent shahridan respondentlarning yarmidan ortig'i (51,4%) o'lka tarixini yetarli darajada bilmagan. Buxoro viloyatidagi respondentlarning 19,0 foizi o'lka tarixini bilmasligini e'tirof etgan. Shaharliklarga qaraganda (43,0%) qishloqda yashovchilar o'z o'lkasi tarixini yetarli daraja bilishi xarakterlidir. Bu "bilaman, biroq yetarli emas" pozitsiyasi uchun xarakterli bo'lib, qishloqda yashovchilarning 43,5 foizi buni e'tirof etgan edilar.

Millati bo'yicha qoraqalpoqarning ko'pchiligi, ya'ni 60 foizi o'lka tarixini yetarlicha bilaman deb hisoblashgan, slavyanlarning deyarli yarmi o'lka tarixini umuman bilishlarini, biroq yetarli darajada bilmasliklarini qayd etishgan (49,5%).

¹ Ubaydullayeva R., Otamirzayev O., G'aniyeva M. O'zbekistonliklarning milliy o'zligi. O'zbekiston Respublikasi "Ijtimony fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi (O'zJFO'M). –T. 2004.

“Bilmayman” degan pozitsiyani qayd etganlar orasida eng ko’pchilikni qozoqlar (30,2%) va eng ozchilikni qirg’izlar (8,3%) tashkil etgan. Qo’yilgan savolga to’gridan-to’g’ri berilgan javoblar respondentlar o’lka tarixini qisman biladi, deb xulosa chiqarish uchun asos bo’lgan edi¹.

Umuman, milliy ruhiyatni shakllantirishda: “milliy g’urur”, “milliy iftixor”, “milliy his”, “milliy xarakter” kabi tushunchalar ham muhim o’rin tutadi.

1. Milliy g’urur - shaxs g’ururi - bu faxrdir. Har bir shaxs o’z yutuqlaridan mammuniyat hissini tuyadi, ota-onalardan, ustoz iste’dodli shogirdidan, yozuvchi yaxshisi asaridan, bog’bon so’lim bog’idan faxrlanadi va hokazo. O’zligicha qola bilgan odamning g’ururi - bu butundir.

2. Milliy iftixor - millat ma’naviy kamolotining barcha jihat-larini, merosi va bugungi qadriyatlarini o’z ichiga oladi. Milliy istiqlol natijasida erishilgan va erishilajak iqtisodiy va ma’naviy yutuqlar ko’paygan sari O’zbekiston bilan faxrlanish hissi - milliy his shunchalik ko’payib boraveradi.

3. Milliy his - bu millat manfaati bilan yashash, o’zi kimligini tanimoq. O’zligini tanimagan insonda milliy iftixor so’nadi. Milliylik, millatga mansublik - bu umumjahon taraqqiyotining qonuniyatidir, milliy g’urursiz hech bir millat millat sifatida shakllanmaydi.

4. Milliy xarakter - o’zbek xarakteri, milliy ruhiyati, milliy o’ziga xos tomonlari asrlar davomida shakllangan hamda asta-sekin ularning qoniga va joniga joylashib ketgan. Milliy g’urur har bir millat hayotidagi mavjud moddiy va ma’naviy asoslarda, obyektiv va subyektiv omillar ta’sirida, individual va ijtimoiy darajalarda shakllanib, rivojlanib, o’ziga xos shakl-ko’rinishlarda namoyon bo’luvchi ijtimoiy, ruhiy-ma’naviy hodisadir².

Bizningcha, milliy g’urur quyidagi shakllarda namoyon bo’ladi: millatning yutuqlari, obro’-e’tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq qarab

¹ Ubaydullayeva R., Otamirzayev O., G’aniyeva M. O’zbekistonliklarning milliy o’zligi. O’zbekiston Respublikasi “Ijtimony fikr” jamoatchilik fikrini o’rganish markazi (O’zJFO’M). –T. 2004,-b.38.

² Bekmurodov A.Sh. Ma’naviy-ma’rifiy faoliyat: ustuvor masalalar va innovatsiyalar. -T.: “TDIU”, 2005. – B.44.

turmaslik, o'z eliga, millatiga jonkuyar bo'lish, o'z millatining moddiy, ma'naviy merosini asrab - avaylash; xalq odatlari, an'analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish, o'z millatiga mehr-muhabbatini amaliy faoliyatda namoyon qilish.

Sog'lom milliy g'urur o'zga millatga mansub kishilarga hurmat-ehtirom ko'rsatishni taqozo qiladi. Boshqa millat vakillarining izzat va g'ururini kamsitmaydi. Mustaqillik kishilar milliy g'ururini oshirib, uni xalq, Vatan, ajdodlar xotirasi oldidagi mas'uliyatini his qilishdek, mazmun bilan boyitilmoqda.

Xullas, milliy o'zlikni rivojlantirish yo'li bilan nafaqat milliy – ma'naviy komillikka erishish shuningdek, bugungi globallashuv jarayonida millat oldiga qo'yayotgan murakkab muammolarni ham hal etishga erishish mumkin bo'ladi.

XULOSA

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda milliy o'zlik, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini aholi, xususan, yoshlar ongiga singdirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan edi. Nimaga deganda, har bir yoshning faolligi uning milliy o'zligini qanchalik darajada anglashiga chambarchas bog'liq.

Milliy ong har bir yoshda milliy g'urur va iftixorning o'sishi hamda ular qalbida yuksak vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishda, ayniqsa, turli zararli illatlar va tahdidlarga barham berishda milliy tarbiyaning muhim vositasi ekanligini inobatga olib qabul qilingan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 28-iyuldag'i "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sonli Qarorlari¹ o'sib kelayotgan yosh avlodni jismonan sog'lom, aqlan yetuk, keng dunyoqarashli va mustaqil fikrlovchi shaxslar sifatida shakllantirishni nazarda tutadi.

Mamlakatimizda barkamol avlod, yangi tafakkur sohiblarini yetishtirish, turli axborot xurujlari kuchaygan hozirgi tahlikali bir davrda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, ayniqsa, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda yoshlar ongida milliy o'zligini anglash tuyg'usi, milliy g'urur, milliy iftixor va milliy xarakterini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev haqli ravishda ta'kidlaganlaridek, "Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda.

"Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi", deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi"².

¹ Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, № PQ-3160, 28 iyul 2017 yil.

² Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. //Xalq so'zi, 31 iyun 2017 yil.

Bugungi kunda, yoshlar mamlakatimiz aholisining qariyb 64 foizini tashkil etadi. Yoshlar bu - ijtimoiy ulg'ayish, kattalar dunyosiga moslashish, istiqboldagi o'zgarishlar va ijtimoiylashuv bosqichini boshdan kechirayotgan, ta'lif olish, kasbiy, madaniy va boshqa ijtimoiy vazifalarni o'zlashtirayotgan, kattalarning ijtimoiy rollarini bajarishga moslashayotgan fuqarolardir, ayni vaqtida ular jamiyatga yangi g'oyalarni tashuvchi va tarqatuvchi faol ijtimoiy kuchdir. Bundan ko'rinish turibdiki, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish sharoitida yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash muhim masala.

Yoshlarning jamiyatdagi faol ishtiroki, eng avvalo, ularning milliy ong va tafakkuri o'zgarishi orqali amalga oshiriladi. Jamiyatimizni yangilash va yoshlar milliy ongini tashqi tahdidlardan, salbiy illatlardan himoyalashda milliy o'zligini anglaganlik darajasi bilan bog'liq. Shu boisdan yoshlar ongiga milliy o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantiorish mustaqillik yillarida yurtimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Shu asosda yangicha yondashuvlar hayotga faol joriy etilmoqda. Endi O'zbekiston yoshlari xalqaro assotsiatsiyasi tuziladi. Yoshlar xorijdagi tengdoshlari bilan ilm-fan, madaniyat, tadbirkorlik, sport va boshqa sohalarda faol muloqotda bo'lishi ularning o'z salohiyatini dunyo miqyosida namoyon etishi uchun katta imkoniyat yaratadi"¹.

Milliy o'zlikni anglash jamiyatda, ayniqsa, uning yosh a'zolari orasida milliy hamkorlik, milliy hamjihatlikning kuchayishiga ko'mak beradi. U yetuk milliy ong, milliy g'urur, milliy qadriyatlar, milliy birdamlik va hamjihatlik tuyg'usi zaminida shakllanadigan vatanparvarlikni ham o'z ichiga oladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi.
–T.: "O'zbekiston", -b.20.

Yoshlarda ona yurtga bo'lgan muhabbat qanchalik kuchli bo'lsa, iymon-e'tiqodi butun bo'lsa, Vatanni sevish, yuksak darajada e'zozlash tuyg'usi kuchayib borsa, har bir inson o'z Vatani tarixini, milliy urf-odatlarini mukammal bilsa, xalqning tili, madaniyati, milliy manfaatlarini, millat taqdiri va istiqbolini chuqr anglab yetgan bo'lsa, jamiyatimiz shunchalik mustahkam va barqaror bo'ladi.

Yoshlar milliy ongini o'stirish, eng avvalo, ta'lim-tarbiya muassasalarida ma'naviy-tarbiyaviy ishlar orqali amalga oshiriladi. Milliy ong va o'zlikni anglash tuyg'usi yoshlar ongini harakatga keltiradi, ularning ezgu tashabbuslarini ro'yobga chiqaradi. Yoshlar esa o'z salohiyati bilan jamiyatni yangilaydi va avlodlarning bardavom an'analarini davom ettiradi.

Shu bilan birga, milliy o'zlikni anglash tuyg'usi yoshlar ongini tashqi tahdidlardan himoyalash va ularga qarshi kurashishda eng ta'sirchan himoya vositasi hamdir. Mamlakatimizda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda yoshlar milliy ongini shakllantirishda quyidagi bir necha takliflarni ishlab chiqdik:

Birinchidan, ta'lim muassasalarida "Vatan tuyg'usi", "Odobnoma", "Milliy g'oya", "Shaxs va jamiyat", "O'zbekiston tarixi" kabi fanlardan o'tkazilayotgan dars mashg'ulotlarini ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy texnik vositalarini keng tatbiq etish asosida olib borish, shuningdek, amaliy darslarni to'g'ridan-to'g'ri mustaqillik yillarda bunyod etilgan muzeylar va ulkan madaniy obidalarining o'zida o'tkazilishini yo'lga qo'yish;

Ikkinchidan, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan ARM (axborot-resurs markazlari) bo'linmalarini yaqin atrofda joylashgan mahalla idorasida ochib, hududdagi yoshlarni kitob o'qishga keng jalb qilish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish;

Uchinchidan, yoshlar orasida milliy g'oyani targ'ib qilishda zamonaviy axborot vositalaridan keng foydalanish, jumladan, Internet global axborot almashinushi tarmog'i orqali, kabel televideniyesi studiyalari yordamida, uyali aloqa operatorlarini keng jalb qilib, qo'l telefonlar yordamida, shuningdek shaharlarimiz

ko'chalarini va xiyobonlarida o'rnatilgan videomonitorlar yordamida vatanparvarlik targ'ibotini yanada kuchaytirish;

To 'rtinchidan, ekranda yoshlarbop milliy seriallar, bolalarchun multiplikatsion filmlar yaratish orqali yoshlarda milliy o'zlikni anglash hamda milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirishni tizimli davom ettirish;

Beshinchidan, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodning iymon-e'tiqodini yanada mustahkamlash uchun jamiyatimizda va fuqarolar ong-shuurida islom dini qadriyatlarini mustahkamlash borasida olib borilayotgan sa'y-harakatlarimizni izchil davom ettirish, bunda ayniqsa keyingi davrda mamlakatimizda bunyod etilgan muhtasham Islom sivilizatsiyasi markazi, Islom akademiyasi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati bilan yoshlarni yaqindan tanishtirish;

Oltinchidan, yoshlarga oid axborot maydonini yanada kengaytirish zarur, ushbu maqsadga erishish uchun yoshlarning matbuot nashrlari hamda ixtisoslashgan internet resurslar, turli ijtimoiy tarmoqlarning salohiyatidan keng foydalanish.

Muxtasar qilib aytganda, bugun O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida odamlarning, ayniqsa, yoshlarning ongib va tafakkuri, ularning dunyoqarashi va hayotga bo'lgan munosabati tubdan o'zgarmoqda. Quvonarlisi, yangi hayot sohiblari – yoshlarimizning dunyoqarashi kengayib, o'z yurtini sevish, uning mustaqilligini asrab-avaylash va mustahkamlash, Vatan va xalq manfaatini o'ylab yashash, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat bilan qarashdek yuksak g'oyalar asosida shakllanmoqda. Bular zamirida, avvalambor, ma'naviy-tarbiyaviy ishlarning o'rni beqiyosdir. Zero, ma'naviyat azal-azaldan insonni komillikka yetaklaydigan beqiyos ne'mat bo'lib xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

- 1.** O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2017.
- 2.** “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2017 yil, 7-fevral.// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son.
- 3.** “2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. //Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2018, 06/18/5308/0610-son.
- 4.** “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, № PQ-3160, 28 iyul 2017 yil.

II. Rahabariy adabiyotlar:

- 5.** Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz.-T.: “O'zbekiston”, 2016. - 56 b.
- 6.** Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.– T.: “O'zbekiston”, 2017. – 104 b.
- 7.** Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T: “O'zbekiston”, 2017. – 48 b.
- 8.** Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
- 9.** Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. -592 b.
- 10.** O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zladi. //Xalq so'zi, 20 sentyabr 2017 yil.

- 11.** O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkilotining fan va texnologiyalar bo’yicha birinchi sammitidagi nutqi. //Xalq so’zi, 10 sentyabr 2017 yil.
- 12.** O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so’zlagan nutqi. //Xalq so’zi, 15 iyun 2017 yil.
- 13.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning O’zbekiston ijodkor ziyorilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi. //Xalq so’zi, 4 avgust 2017 yil.
- 14.** O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25-yilligiga bag’ishlangan uchrashuvdagi nutqi. // Xalq so’zi, 24 yanvar 2017 yil.
- 15.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. //Xalq so’zi, 31 iyun 2017 yil.
- 16.** O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. –T.: “O’zbekiston”, 2018.
- 17.** Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. “Muloqot” jurnali. 1998 yil. 5-soni.
- 18.** Karimov I.A. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. – T.: “O’zbekiston”, 1996.
- 19.** Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi– xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. -T.: “O’zbekiston”, 2000.
- 20.** Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. . -T.:“ Ma’naviyat”, 2008.

III. Asosiy Adabiyotlar:

- 21.** Abdurahmonov M. Ma’naviy salohiyat. –T.: “Universitet”, 2009.
- 22.** Bekmurodov A.Sh. Ma’naviy-ma’rifiy faoliyat: ustuvor masalalar va innovatsiyalar. -T.: “TDIU”, 2005.
- 23.** Erkayev A. Milliy g’oya va ma’naviyat. -T.:“Ma’naviyat”, 2002.
- 24.** Imomnazarov M, Eshmuxamedova M. Milliy ma’naviyatimiz asoslari. –T.: “Toshkent Islom universiteti”, 2001.


- 25.** Lafasov M., Nomozova K., G'ofurov Z. Mustaqillik va milliy tiklanish. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2007.
- 26.** Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug’ati.- T.: “G’ufor G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2009.
- 27.** Mamadaliyev Sh.O., Ernazarov R.U., Erkayev A. Ma’naviyat asoslari. –T.: “O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi”, 2013.
- 28.** Mirkomilov B., O’ralova O., Muhammadiyev P. Ma’naviy tiklanish va o’zlikni anglash. –T.: “Muharrir”, 2010.
- 29.** Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi.-T.: “Faylasuflar jamiyati”, 2004.
- 30.** Oripova M. Ma’naviyat tarixi. –B.: “Rizograf”, 2009.
- 31.** Otamurodov S.O., Abduraxmonov M., Xusanov S. Ma’naviyat asoslari. T.: “Universitet”, 2008.
- 32.** Otamurotov S. Milliy rivojlanish falsafasi. Toshkent“Akademiya”, 2005.
- 33.** Otamurotov S., Otamurotov S. O’zbekistonda ma’naviy-ruhiy tiklanish(sotsial-falsafiy taxlil). – T.: “Yangi asr avlodi”, 2003.
- 34.** Otamurodov S. Globallashuv va millat. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2008.
- 35.** Otamuratov S. Globallashuv va milliy ma’naviy xavfsizlik. –T.: “O’zbekiston”, 2013.
- 36.** Ochilova B. Milliy-ma’naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: “Istiqlol”, 2009.
- 37.** Jabborov I. O’zbeklar. –T.:“Sharq”, 2008.
- 38.** Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2011.
- 39.** Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. T.: “Universitet”, 1998.
- 40.** Tulenov J., G’afurov Z. Mustaqillik va milliy tiklanish. T.: “Yangi asravlodi”, 1995, 20-b.
- 41.** Ubaydullayeva R., Otamirzayev O., G’aniyeva M. O’zbekistonliklarning milliy o’zligi. O’zbekiston Respublikasi “Ijtimony fikr” jamoatchilik fikrini o’rganish markazi (O’zJFO’M). –T. 2004.
- 42.** Хабибуллин К.Н. Национальное самосознание и интернационалистическое повидение. –Л.: “Знание”, 1998.

- 43.** Shamsutdinov R. Vatan tarixi. –T.: Sharq, 2010.
- 44.** Sharifxo'jayev M., Davronov Z. Ma'naviyat asoslari.-T.: "Moliya instituti", 2005.
- 45.** Шувалов А.Б. Человек в системе национальных отношений. Автореферат. -М.: 1980.
- 46.** Qo'chqorov V. Milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. –T.: "Akademiya", 2007


IV. Internet ma'lumotlari

- 47.** www.lex.uz
- 48.** www.president.uz
- 49.** www.gov.uz
- 50.** www.ziyouz.com
- 51.** www.ziyonet.uz
- 52.** www.uza.uz
- 53.** www.manaviyat.gov.uz

1-ILOVA



2-ILOVA



3-ILOVA

**MILLATNING MILLIY O'ZLIGINI ANGLASH SHAXSNING
MILLIY O'ZLIGINI ANGLASH BILAN HAM CHAMBARCHAS
BOG'LIQDIR:**

1) Millat (etnos)ga mansublikni anglash

2) Mazkur millatning insoniyat taraqqiyotidagi tarixiy o'rmini tushunib yetish

3) Milliy qadriyatlarga sodiqlik

4) Millatning ehtiyojlari va manfaatlarini angalsh, uning rivoj-lanish yo'llarini bilish

4-ILOVA

Milliy g'urur shakllanishi quyidagicha tavsiflanadi:

1) Milliy g'urur milliy ong ta'sirida rivojlanadi

2) U obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar ta'sirida o'zgarib boradi

3) Milliy g'urur shaxs(lar) g'ururi shaklida namoyon bo'ladi

4) Milliy g'urur siyosiy ong, madaniyat bilan bog'liq holda fuqarolik g'ururi shaklida ko'rindi

5) Milliy g'urur vatanparvarlik va milatparvarlikda seziladi

MUNDARIJA

KIRISH	3
I bob. Milliy ong- ma’naviy barkamol insonni shakllantiruvchi mezon	9
1.3. Milliy ong va uning ma’naviy asoslari	9
1.4. Milliy o’zlikni anglash va uning mohiyati	24
II bob. Milliy o’zlikni anglash – barkamol inson ma’naviyatining belgisi	33
2.1. Barkamol insonda milliy o’zlikni anglash tuyg’usi va uni mustahkamlash masalalari	33
2.2. Milliy o’zlikni anglash rivojlanishi zaruriyatining kuchayishi	48
XULOSA	60
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI	64
ILLOVA	66